

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВАЎРТА

МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ

КРЕДИТ-ИҚТИСОД ФАКУЛЬТЕТИ

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

“Кредит-иқтисод” факультети

Декани О. Сатторов _____

“ ____ ” _____ 2013 й.

“БАНК ИШИ” КАФЕДРАСИ

ЭШМУРОДОВ СУЛТОН СУВОНҚУЛОВИЧ

БАНКЛАРАРО РЕСУРС БОЗОРИ ВА УНИ

РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

5340700- “Банк иши” йўналиши бўйича бакалавр даражасини олиш

учун

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

“ҲИМОЯГА ТАВСИЯ ЭТИЛАДИ”

Илмий раҳбар:

“Банк иши” кафедраси мудири

_____ и.ф.н.доц. С.Х.Норқобилов

“ ____ ” _____ 2013 й.

_____ к.ўқт. М.Ёдгорова

« ____ » _____ 2013 й.

TOSHKENT – 2013

MUNDARIJA

Kirish.

1-Bob. Tijorat banklari resurslarini shakllantirishning iqtisodiy-xuquqiy asoslari.....	6
--	----------

1.1. Tijorat banklari resurslari va ularning iqtisodiy mohiyati.....	6
--	---

1.2. Bank moliyaviy resurslarini shakllantirishda banklararo resurslarning o' rni va ahamiyati.....	16
---	----

2-Bob. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining banklararo resurs bozoridagi operatsiyalari va ularning amaldagi holati.....	27
--	-----------

2.1. Tijorat banklarini resurslari shakllantirishning amaldagi holati....	27
---	----

2.2. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining banklararo resurs bozoridagi faoliyati va uning tahlili.....	36
---	----

3-Bob. O'zbekiston Respublikasida banklararo resurs bozorini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish yo'llari.....	45
--	-----------

Xulosa	58
---------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	64
--	-----------

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan ikki pog'onali bank tizimi shakllantirildi, ayni paytda ushbu tizim muntazam ravishda takomillashtirilmoqda. Bozor iqtisodiyotida doimo "raqobat" degan bozor unsuri faoliyat ko'rsatadi. Iqtisodiy raqobat yo'lida banklarning muhim vazifalaridan biri-o'z mijoz va kontragentlari oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatidir. Shu bois ushbu omilga Prezidentimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilib, bank va moliya tizimlaridagi islohotlarni chuqurlashtirish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilab berildi .

Banklar o'z majburiyatlarini to'liq bajarishi uchun mijozlari oldida ishonchli imijiga ega bo'lishi lozim. Bu ishonch esa banklarning likvidligi negizidan kelib chiqadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari o'z faoliyatlari barqarorligini ta'minlashi uchun, avvalo, likvidlikka, to'lov qobiliyatiga, daromadlilikka muntazam e'tibor qaratishi talab etiladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mavjud tijorat banklarining hisobot davri davomida vakillik hisobvaraqlarida mablag'lari etarli bo'lishi kuzatilgani holda, oyning o'rtasida vakillik hisobvaraqlari sezilarli tushib ketmokda va ushbu holat ularning likvidligiga ham ta'sir qilmoqda. Natijada, oy o'rtasida mijozlar majburiyatlarining birinchi talabini bajarishda ayrim qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Shuningdek, likvid aktivlarning bank brutto aktivlari hajmidagi ulushi o'rtacha 15-20% bo'lgani holda, qariyb 50 foizini Markaziy bankning majburiy zaxirasida deponentlangan mablag'lar tashkil etadi. Ushbu mablag'lardan banklar faoliyatini amalga oshirish litsenziyasi qaytarib olingandan keyingina foydalanilishini hisobga olsak, ular banklar likvidligini ta'minlashga xizmat qilmayotganligi ma'lum bo'ladi. Qolaversa, tijorat banklari likvidligi operativ hal etilishida Markaziy bank tomonidan overdraft, overnait va boshqa likvidlikni ta'minlaydigan kreditlardan foydalanilmayapti. Yuqoridagi holatlar bu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Banklararo bozor moliya bozorining segmentlaridan biri hisoblanib, bank investitsiyalarini real iqtisodiyotga bank tizimida jamlangan mablag'larni tez va samarali qayta taqsimlash orqali joylashtirishni ta'minlaydi. Banklararo bozorning faoliyat yuritishi iqtisodiyot uchun investitsiya bo'yicha ma'lum qarorlarini qabul qilish nuqtai nazaridan ularning umumiy hajmi va samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi va pirovard natijada iqtisodiy o'sishga erishishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Banklararo bozor faoliyatida tartibga solingan tizimning mavjudligi har qanday zamonaviy bank tiziminining asosini tashkil etib, banklarning zaruriy mablag'lardan foydalanishlarini engillashtiradi, bank bitimlari hajmini ko'payishini ta'minlaydi, qo'shimcha mablag'larni ushlab turish zaruriyatini pasaytiradi. Shuningdek banklarning ham harajatlar evaziga yanada samarali ishlashlariga imkoniyat yaratib beradi. Yaxshi ishlaydigan banklararo bozor nafaqat banklar faoliyatini engillashtiradi, balki bozor nomutanosibliklarining vujudga kelishini kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining real sektorini rivojlantirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan va bunda tijorat banklariga ularni moliyalashtirish vazifasi yuklatilgan. Ushbu jarayonlarda har bir bankning ishtirok etishi to'g'ridan-to'g'ri ularning mablag'larini boshqarish darajasi bilan bog'liq. Boshqa tomondan esa banklarni likvidligi va rentabelligi darajasi mavjud aktiv va passivlarini boshqarish samardorligiga bog'liqdir. Muxtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek "Joriy yilda mutanosib qat'iy pul-kredit siyosatini amalga oshirish davom ettiriladi, inflyatsiya ko'rsatkichlari 7-9 foizni tashkil qiladi, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 12 foiz darajasida saqlanadi."¹

Bu borada bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash, Respublika moliya-bank tizimini yanada rivojlantirish va uning barqarorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarni so'zsiz amalga oshirish, bank nazoratini kuchaytirish, bank

¹ I.I.Karimov. Bosh maqsadimiz –Keng ko'lamli islohatlar va maderinzatsiya yo'lini qattiyat bilan davom ettirish, Halq so'zi 2013 20 yanvar

aktivlari va kredit portfelining sifatini yaxshilashga alohida

qaratiladi. Bank tizimi jami kapitalini kamida 20 foizga ko'paytirish mo'ljallanmoqda.

Banklar vaqtinchalik erkin aktivlarini joylashtirish, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun resurslarni jalb qilish va o'zini likvidligini ta'minlash maqsadida banklararo bozorda ishtirok etadilar. Banklararo bozor ushbu mablaqlarga ehtiyoji bo'lgan va yuqori rentabellikka ega bo'lgan biznes sub'ektlari o'rtasida erkin pul mablag'larini qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Sanab o'tilgan vazifalarni bajarish uchun yaxshi rivojlangan banklararo bozor mavjud bo'lmog'i lozim. Mazkur mavzu shu jihatlari bilan dolzarb hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Mamlakatimiz bank tizimini barqarorligini va iqtisodiyotni real sektorini o'sishini ta'minlash maqsadida tijorat banklar faoliyatida banklararo resurslar xajmini oshirishning nazariy asoslarini o'rganish va ushbu resurslarni bank daromadlilikini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi.

- Tijorat banklari resurslarini shakllantirishning iqtisodiy-xuquqiy asoslarini yoritib berish;
- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining banklararo resurs bozorida operatsiyalari va ularning amaldagi holatini o'rgangan holda tegishli xulosalar shakllantirish;
- O'zbekiston Respublikasida banklararo resurs bozorini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lib mamlakatimiz tijorat banklarining banklararo resurs bozorida faoliyati hisoblanadi. Banklararo resurs bozorida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda xulosa va takliflardan iborat

1-Bob. Tijorat banklari resurslarini shakllantirishning iqtisodiy-xuquqiy asoslari.

1.1.Tijorat banklari resurslari va ularning iqtisodiy mohiyati.

Resurs - frantsuzcha «ressource»¹ so'zidan olingan bo'lib, pul mablag'lari, yordamchi mablag', imkoniyat, zahira, mablag' va imkoniyatlar manbai, daromadlar manbai, xom-ashyo degan ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi.

Iqtisodiy manbalarda «resurs» so'zi turli xil ma'nolarda, ya'ni, tabiat resurslari, moliyaviy resurslar, iqtisodiy resurslar, inson resurslari va boshqa ko'rinishlarda tez-tez uchray turadi. Shundan iqtisodiy resurslarni jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida taqsimlanadigan iqtisodiy imkoniyatlarining asosiy elementlaridan biri deb hisoblash mumkin. Undan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning aniq maqsadlariga erishishda foydalaniladi. Iqtisodiy resurslar asosiy qismi, bu moliyaviy resurslar bo'lib, bu resurslar iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlash uchun foydalaniladigan pul-kredit va byudjet mablag'larini tashkil qiladi.

Moliyaviy resurslarning asosiy manbai bo'lib, vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'lari, soliqlar, jismoniy shaxslarning pul mablag'lari, chek- depozit emissiyasi bilan bog'liq mablag'lar va boshqalar hisoblandi.

Iqtisodiy manbalarda va bank mablag'larining shakllanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda «bank resurslari», «kredit resurslari», «depozit resurslari», «bank passivlari» kabi tushunchalarni uchratishimiz mumkin va bu tushunchalarga mualliflar o'zlarining turlicha ta'riflari orqali izoh berganliklarining shohidi bo'lamiz.

Rossiyalik olim O.Lavrushinning fikriga ko'ra, tijorat banklarining resurslari yoki «banklarning resurslari» bankning ixtiyorida bo'lgan o'z va jalb qilingan resurslarining yig'indisi bo'lib, uning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi². Shunday fikrni boshqa bir guruh mualliflarning ilmiy izlanishlarida ham uchratish mumkin. Tijorat banklarining resurslari o'z

¹ Азрилияна А. Большой экономический словарь. М.: Институт новой экономики, 1999. - 852 с.

² Банковская дело. Под редакцией О.И. Лаврушина М.Фин. и статистика. 1998. с.68.

mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan tashkil qilinishini ta'kidlash, bizning fikrimizcha, ularning manbalariga ko'proq e'tiborni qaratadi. Bank resurslarining zarurligi bank faoliyatini tashkil qilish va olib borish natijasida shakllanadi. Banklar tashkil qilinishining ilk bosqichlarida banklardan avvalambor o'z kapitalining mavjud bo'lishi va banklar keyingi faoliyatlarini olib borishlari uchun esa mablag'lar jalb qilinishi talab qilinadi. Shu boisdan, tijorat banklari resurslari mohiyatini ta'riflaganda nafaqat ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil qilinganligini e'tiborga olish, balki u mablag'lar bankning maqsadli faoliyati uchun zarur va muhimligini hamda ularning samaradorligiga erishishni ham ko'zda tutish lozim.

Bank resurslarini puxta urganish uchun ularni guruxlarga ajratib tasniflash lozim. Tugri, bank resurslarining turkumlanishi ularni boshqarishda jiddiy o'zgarish yaratmaydi, ammo ularni o'rganishning tizimli yondashuvini vujudga keltirish uchun asos yaratadi.

Tijorat banklari resurslarining shakllanishi jihatidan tasniflanishi bankirlar va iqtisodchi-olimlar tomonidan turlicha o'rganiladi. Bu boradagi o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan asosiy uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin.

Birinchi guruh olimlari - Bu guruhga Rossiya olimlaridan - Bukato V.I. va Lvov Yu.I.larni va boshqa olimlarni kiritish mumkin. Ular o'zlarining «Banki i bankovskie operatsii v Rossii»³ kitobida «bank resurslarini shakllanishi jihatidan ikkiga bo'lib o'rgangan, ya'ni bank resurslari bankning o'z kapitali va jalb qilingan mablag'lardan iborat» deb ta'kidlovchi olimlardir. Lavrushin O.I. «Bankovskoe delo» kitobida «tijorat bank resurslari shakllanishi jihatidan, o'z resurslari va jalb qilingan mablag'larga bo'linadi»⁴, - deb aytib o'tgan. Maslennenkov Yu.S. «Finansoviy menejment v kommercheskom banke» kitobida: «bank resurslarini o'z va jalb qilingan mablag'glardan tashkil topadi»⁵, - deb o'rganadi. Bularning ishlaridan ko'rishimiz mumkinki, bu iqtisodchi-

³ Букато В.И., Львов Ю.И. «Банки и банковские операции в России», Москва, «Финансы и Статистика» наширети, 1996 йил 139-бет.

⁴ Банковское дело. Учебник под редакцией Лаврушина О.И. - М.: Финансы и статистика, 1998. - 576 с.

⁵ Масленченков Ю.С. Менеджмент в коммерческом банке. - М.: Перспектива, 1996. - 190 с.

olimlar resurslarning tarkibiy shakllanishiga ko'p e'tibor berib, bank resurslarini faqat ikki guruhga bo'lib o'rganganlar.

Ikkinchi yo'nalish olimlari, bu guruhga Rossiya olimlaridan - Sadvakasov K.K., Kiselev V.V.lar kiradi. Bu gurux olimlari bank resurslarini o'rganishda tarkibiy jihatdan uch yirik guruhga bo'lib tasniflaydilar. Ya'ni, bank resurslari bankning o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lari va emitentlashgan mablag'lar. Rossiya olimlarining ikkinchi gurug'i kabi, O'zbekistonlik olimlardan Abdullaeva Sh. Z. xam bank resurslarini uch yirik guruhga bo'lib o'rgangan. Xususan, Sh.Z.Abdullaeva o'zining «Bank ishi» kitobida: «Tijorat banklarining resurslari bankning o'z mablaglari, jalb qilingan va emitentlashgan mablag'lar xisobidan shakllanadi»⁶ - deb ta'kidlagan.

Rossiya va O'zbekiston iqtisodchi-olimlaridan farqliroq, uchinchi guruh olimlari, bularga Evropa va AQSh iqtisodchi-olimlari kiradi, bank resurslarini o'rganishda bank kapitali va bank passivlariga bo'lib o'rganadilar. Ya'ni bank passivlariga bank kapitalini qo'shmaydilar. Shveytsariya olimlari Claudia Dziobek «Instruments for Bank Restructing»⁷ ilmiy ishida, Rode V. «Commercial Banks in a modern economy»⁸ kitobida bank resurslarini - bank passivlariga va bank kapitaliga bo'lib o'rgangan.

David Polfreman, Filip Ford banklarning resurslarini bank passivlari sifatida talqin qilishgan. Ular asosan tijorat banklari passivlariga asosiy e'tibor qaratishib, resurslarning manbalari, shakllanish amaliyoti va ularni boshqarish masalalarini e'tibordan chetda qoldirishgan⁹.

Sinki Dj. resurslarni nafaqat tijorat banklari, balki moliyaviy kompaniyalar, jamg'arma kassalari, turli moliyaviy fondlar ham jamg'aradi degan fikrni ilgari suradi¹⁰.

Biz tijorat banklarining resurslarini fakat ikki guruxga, ya'ni o'z

⁶ Abdullayev Sh.Z «Bank ishi». - T.: TMI, 2007 yil..


⁷ Claudia Dziobek, «Market-Based Policy Instruments for Systemic Bank Restructing», Working Paper, //International Monetary Fund// No.113, 1998, 190c.

⁸ Rode V. «Commercial Banks in a modern economy» //Switzerland Press// Switzerland. 1998.

⁹ Польфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дело. –М.: Инфра М. 1996. -С. 102-104.

¹⁰ Синки Дж. Управление коммерческими банками. Перевод с англ. –М.: Cattalaxy. 1994. –С. 22-23.

mablag'lari va jalb qilingan mablag'larga bo'lib o'rganmokchimiz. Chunki, bizning fikrimizcha, qarz mablag'lar yoki emitentlashgan mablag'lar ham chetdan jalb qilinadi, shuning uchun ularni alohida guruhga bo'lib o'rganish shart emas deb hisoblaymiz va qarz hamda emitentlashgan mablag'larini jalb qilingan mablag'larning bir bo'lagi sifatida ko'rib chiqamiz. Bunday yondashuv, bizning fikrimizcha, bank resurslarini tushinishni soddalashtiradi.



1-pasm. Tijorat banklari resurslari tarkibi¹¹

¹¹ Абдуллаева Ш.З., Омонов А.А. “Тижорат банклари капитали ва уни бошқариш”. Ўқув қўлланма./ –Т.: “Иqtisod-Moliya” 2006.

Tijorat banklari boshqa xo'jalik sub'ektlari kabi o'zining xo'jalik va tijorat faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslarga ega bo'lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin, ya'ni iqtisodiyotning bozor modeliga o'tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatildi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o'zgaradi.

Bundan tashqari, uning aktiv operatsiyalari ko'lami, resurslar hajmiga bog'liq bo'ladi. Bunday holat resurslarni jalb qilish bo'yicha banklar o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi.

Shundan kelib chiqib, bank resurslari tijorat banki faoliyatini keng olib borishga asos bo'lib, bankka ma'lum miqdorda daromad keltira olish qudratiga ega bo'lgan zahira va imkoniyatdir. Tijorat banklari o'zining kredit siyosatini ishlab chiqqanda yoki uzoq davrga o'z faoliyatining startegik yo'nalishlarini belgilaganda shu zaxira va imkoniyatlarning ko'lamini keng ko'rib chiqishi va resurslarni o'z faoliyat yo'nalishlarining daromad manbalari sifatida nazarda tutishi lozim.

Chet el adabiyotlarida¹² mablag'larni jalb qilish operatsiyalarini nafaqat tijorat banklari, balki moliyaviy kompaniyalar, jamg'arma kassalari, turli xil fondlar ham bajaradi degan fikrni uchratish mumkin. Lekin, fondlarning faoliyati va maqsadi bilan tijorat banklarining faoliyati va maqsadi bir xil emas. Turli fondlar va muassasalar faoliyatidan ko'ra banklarda depozitlar sug'urtalangan va kafolatlangandir. Turli boshqa moliyaviy muassasalarga nisbatan tijorat banklari bu mablag'larni saqlash va riskdan himoya qilishda mablag' egasiga o'z kafolatini berishi mumkin va mijozning o'z mablag'ini yo'qotishi bilan bog'liq riski banklarda boshqa fondlar yoki kassalarga nisbatan ancha past yoki deyarli yo'q deyish mumkin.

¹² Синки Дж. Ф. Управление финансами коммерческих банков. Превод с англ. М.: Catallaxy. 1994. с. 22-23.

Klassifikatsiya belgisi	Resurslar turlari	Izoh
1	2	3
Manbai	O'z mablag'lari	Nizom, qo'shimcha kapital, zaxiralar, foyda va zararlar hisob rakamidagi qoldiq
	Jalb kilingan va karz mablag'lari	Mijozlarining hamda vakil-banklarining joriy, depozit, jamg'arma va boshqa hisob raqamlaridagi mablag'lar; yuridik shaxslar tomonidan olingan kreditlar
Mablag'larning kimga tegishliligi bo'yicha	Bankka tegishli	O'z mablag'lari: jamg'armalar, taksimlanmagan foyda, taksimotdan keyinga joriy davning foydasi, uz mablag'larini ko'payishiga ta'sir kiltuvchi xarajatlarni hisobga olmagan holda emission daromad.
	Bankka tegishli bo'lmagan	Qarz banklararo kredit, banklararo moliyaviy mablag'lari yordam, muddatli qimmatli qog'ozlar
		Jalb depozitlar, maxsus jamg'armalar, hisob qilingan raqamlardagi vaqtincha bo'sh mablag'lar, mablag'lar bankning kreditorlik qarzlari, debitorlar bilan hisoblashishlar bo'yicha zaxiralar. o'z mablag'lariga tenglashtirilgan mablag'lar
Muddatiga ko'ra	Uzoq muddatli	O'z mablag'lari, o'z mablag'lariga tenglashtirilgan-mablag'lar (talab qilib olinguncha hisob raqamlaridagi minimal qoldiqlar), uzoq muddatli depozitlar, moliyaviy yordam.
	qisqa muddatli	Qisqa muddatli depozitlar, korxona va tashkilotlarning talab qilib olinguncha hisob raqamlaridagi minimal qoldiqdan ortgan mablag'lar
Qiymati	To'lovli	O'z mablag'lari, depozitlar, boshqa yuridik shaxslarining kreditlari
	Nisbatan to'lovsiz	Talab kilib olinguncha xisob rakamlari, korxonalarning xisob va joriy xisob rakamlari
Ishonchlilik darajasiga ko'ra	Ishonchli	Uz mablag'lari, uzok muddatli depozitlar, moliyaviy yordam
	Ishonchsiz	Qisqa muddatli depozitlar, talab qilib olinguncha depozitlar, korxona va tashkilotlarning hisob va joriy hisob raqamlari
Ko'payish manbai	O'z Ichki	Taksimlanmagan foyda
	Mablag'lari Tashqi	Qimmatli qog'ozlarni chiqarish (aktsiya, obligatsiya, veksellar), shu jumladan, konvertirlanadigan, bank aktivlarini sotish, ko'chmas mulkni ijaraga berish
	Jalb Ichki	Qimmatli qog'ozlarni konvertatsiya qilish
	qilingan tashqi va qarz mablag'lari	Yuridik shaxslarni hisob rakamlarini ochish, fuqarolarning omonatlari, yuridik shaxslarning depozitlar, banklararo kreditlar.

2-rasm.¹³ TIJORAT BANKLARI RESURSLARINING TASNIFLANISHI

¹³ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqorida tavsiya qilingan tasnif, bizning fikrimizcha, banklar faoliyati uchun zarur bo'lib tijorat banklari o'zida mavjud bo'lga resurslarni qaysi manbadan, qanday qiymatda, qancha muddatga jalb qilinganligi to'g'risida yaqqol tasavvurga ega bo'ladi. Undan tashqari bu tasnif asosida tijorat banklari mablag'lar qaysi sub'ektga tegishli ekanligi va bu sub'ektning moliyaviy ahvoli, unga shu mablag'lar qaysi muddatga zarurligi yoki boshqacha qilib aytganda ularning likvidlilik, ishonchlilik darajasi, shu mablag'lar bo'yicha mavjud risklar va ularning darajasining aniqlashga va shu omillar asosida chora tadbirlarni amalga oshirib banklarning resurs bazasini barqaror ushlab to'rishga yordam beradi.

Tijorat banklari, boshqa xo'jalik sub'ektlari kabi o'zining xo'jalik va moliyaviy faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslariga ega bo'lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin, ya'ni iqtisodiyotning bozor modeliga o'tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatiladi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o'zgaradi.

Bankning asosiy vazifalaridan biri bo'sh pul mablag'larini mumkin qadar ko'proq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Bank kredit resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari yordamida shakllanib, bank balansining passiv qismida ikki katta guruhga bo'lib hisobga olinadi. Bular: banklarning o'z mablag'lar va jalb qilingan mablag'laridir. Jalb qilingan resurslarni ba'zi hollarda ikkiga bo'lib qaraladi. Birinchisi, bu jalb qilingan depozitlar, ikkinchisi, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurslardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro

chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga, resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

Bank kredit resurslarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag'lari tashkil qiladi. Bank boshqa mablag'larini jalb qilish uchun, avvalambor me'yoriy hujjatlar talablari bo'yicha, o'z kapitalining etarlilik darajasi miqdorini shakllantirishi lozim.

Tijorat banklari bajarayotgan barcha operatsiyalar bevosita yoki bilvosita bank kapitalining etarliligi va uning sifatiga bog'liq bo'lib, har qanday tijorat bankining to'lovga qobilligini va xatardan holiligini baholashda asosiy omil hisoblanadi. Tijorat banklarining etarli miqdorda bank kapitaliga ega bo'lishi, ularning likvidligini ta'minlashda va faoliyati davomida duch keladigan xatarlardan zarar ko'rmay chiqib ketish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan asosiy talablar "Tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Markaziy bankning 420-sonli Nizomida belgilangan. Nizom bo'yicha tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan talablar xalqaro Bazel qo'mitasining andozalarida ko'zda tutilgan talablarga mos keladi. Bazel qo'mitasining andozalari, unga a'zo bo'lgan o'n ikkita mamlakat markaziy banklarining vakillari ishtirokida 1988 yilda ishlab chiqilgan va 1993 yilda amaliyotga joriy etilgan.

Tijorat banki o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida, bu mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo'lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo'lib, ular aholining bo'sh turgan pul mablag'larining bank sari oqimini ta'minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo'lgan holatda mijozlar o'z mablag'larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi. Resurslar yordamida banklarning tashkiliy

faoliyati amalga oshiriladi, kreditlar berish salohiyati, to'lovlarning amalga oshirilishi natijasida, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi.

Bank kredit resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa, o'z navbatida banklar faoliyatini doimiylikiga asos hisoblanadi.

Shu sabab o'tish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan deyarli barcha mamlakatlarda tijorat banklari kredit resurslarini shakllantirish tizimida tubdan o'zgarishlar amalga oshirildi. Bunday o'zgarishlarga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi. Bular:

- banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligi;
- iqtisodiyotda noto'lovlar muammosining mavjudligi va kreditning qaytarilmasligi oqibatida, tijorat banklarining zarar ko'rish darajasining oshishi;
- aholi qo'lidagi omonatlarning o'sishi;
- korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining etarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir.

Banklarda mavjud bo'lgan mablag'lardan foydalanish imkoniyatiga va ularning manbaalariga qarab bank resurslari o'z resurslariga va qarz (sotib olingan) resurslarga bo'linadi. Bank resurslariga bank kapitalidan tashqari ma'lum vaqt davomida bank ixtiyorida bo'lgan jalb qilingan depozitlarni, boshqa banklardagi depozit va vakillik hisob raqamidagi qoldiqlarni, forvard valyuta kursi va kliring bo'yicha qoldiqlarni ham kiritish mumkin.

Undan tashqari, bankning ixtiyorida mavjud bo'lgan resurslar uning amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan aktiv operatsiyalar uchun etarli bo'lmasa, zarur miqdordagi mablag'larni markaziy bankdan, nobyudjet fondlardan, resurslar bozoridan sotib olishi yoki qarzga olishi mumkin. Shunday qilib, o'z mablag'lari va jalb qilingan yoki sotib olingan mablag'lari yig'indisi tarkibiy shakllanish jihatdan tijorat banklarining resurs bazasini tashkil qiladi. Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga o'z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi: yuridik va jismoniy shaxslarning depozit

hisob varaqlaridan qoldiqlari; bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan vekselar va depozit sertifikatlar; olingan banklararo kreditlar; vakil bank tomonidan ochilgan “Vostro” depozit hamda valyuta hisob varaqasidagi mablag’lar va boshqa manbalar.

Ustav kapitalining miqdori, uni shakllantirish va unga o’zgartirishlar kiritish tartibi bankning Nizomida belgilangan bo’ladi. Ustav kapitalini oshirish yangi aktsiyalarni muomalaga chiqarish, yoki sof foydani kapitalizatsiya qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ustav kapitalidagi o’zgarishlar aktsiyadorlarning umumiy yig’ilishining qarori bilan tasdiqlanishi va Markaziy bank ro’yxatidan o’tishi kerak.

Bank kapitalining yana bir turi zaxira kapitali bo’lib, u tijorat banklarining foydasidan ma’lum foizini ajratish orqali tashkil qilinib, u majburiyatlarni qaytarishga va maxsus zaxiralar tashkil qilinmaydigan bank operatsiyalari bilan bog’liq xatarlarni qoplashga sarflanadi. Zaxira kapitali odatda kredit riski ochiq namoyon bo’lganda bank kengashining qarori bilan sarflanishi mumkin.

Turli debitorlar bilan hisoblashishlar bo’yicha tuzilgan jamg’armalar ham qonunchilikka asosan tijorat bankining o’z mablag’lari qatoridan joy olgan. Shu bilan birga xalqaro hisob standartlariga asosan, kredit tashkilotlari ushbu mablag’larni o’z mablag’lari qatoriga kiritmaydi, balki ularni o’zaro mos debitorlik qarz majburiyatlaridan chegirib tashlashadi. Bu esa zaxiralarning iqtisodiy mohiyatini, ya’ni ular o’zida aktiv daromad keltiradigan operatsiyalarni aks ettiradi. Shu sababdan ham, ular xatarli mablag’lar hisoblanadi va ishonch kamligi tufayli bankning o’z mablag’lari tarkibiga kiritilmaydi.

Ishonchlilik darajasi bo’yicha bankning o’z mablag’lari va ularga tenglashtirilgan mablag’laridan keyingi o’rinda turuvchi jalb qilingan va qarz mablag’lari bir qator ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’siriga bog’liqdir:

- fuqarolarning omonatlari va yuridik shaxslarning depozitlari bo’yicha foiz stavkalari miqdori;
- omonat va depozitlarni qabul qilish, hisob-kitob va boshqa hisob raqamlarini ochish hamda ularni yuritish shartlari.

Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari qarz mablag'laridan shunisi bilan farq qiladiki, birinchi holda, mablag'larni taqdim qilish mijoz va bank omonatchilarining tashabbusi bilan amalga oshirilsa, keyingi holda - bank tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Jalb qilingan mablag'lar qatorida alohida resurs sifatida kredit tashkilotlari, kredit uyushmalari, mikrocredit tashkilotlarining mablag'larini ko'rsatish lozim. Chunki, banklar ishlab chiqarish va savdo tashkilotlari yoki xususiy shaxslardan farqli o'laroq bir-birlari bilan operatsiyalarni amalga oshirishda banklararo bozorda qatnashishlari mumkin, shu sababdan ham ular bir-birlarining likvidliliklariga va moliyaviy holatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xuddi shu tamoyil asosida, qarz mablag'larining alohida bir guruhiga, markaziy bank va boshqa banklar oldidagi majburiyatlar ham kiritiladi. Bundan tashqari, tashqi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sir ko'rsatadigan yuqori darajadagi riskli resurslar qatoriga norezident banklar, korxona va jismoniy shaxslarning mablag'lari ham kiradi. Nobank sektoridan jalb qilingan mablag'lar qatorida ishonchlilik darajasiga ko'ra depozitlar (asosan muddatli depozitlar) muhim o'rin tutadi.

Shu o'rinda, mijozlarning hisob raqamlaridagi qoldiqlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim, chunki, bu mablag'lar deyarli tekin hisoblanadi va shu sababdan bu mablag'lar bankning kredit resurslari qatoridan joy olishi mumkin. Bu mablag'lardan ustalik bilan foydalanilsa, ularni o'z mablag'lariga ham tenglashtirish mumkin. Tijorat banklari resurslarining shakllanish tartibi va ularning ustav kapitalining minimal miqdori Markaziy bank tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.

1.2.Bank moliyaviy resurslarini shakllantirishda banklararo resurslarning o'рни va ahamiyati.

Banklararo pul resurslari bozori moliya bozorining asosiy segmentlaridan biri hisoblanib, tijorat banklariga vaqtincha bo'sh mablag'laridan samarali foydalanish va qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini zudlik bilan qondirishga imkoniyat yaratadi. Banklararo pul resurslari bozorida qisqa muddatli kredit resurslar sifatida ishtirok etayotgan mablag'lar butun bank

tizimidagi mavjud bo'sh mablag'lar hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar birinchisidan ikkinchisiga o'tish orqali ularning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'ining umumiy hajmi o'zgarishsiz qoladi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari banklararo pul resurslari bozorining ishlashida quyidagi asosiy jihatlarni ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, yirik tijorat banklari ushbu bozorda asosan o'z likvidliligini ta'minlash maqsadida yoki bo'sh pul mablag'larini joylashtirish maqsadida ishtirok etadi. Vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini joylashtirish asosida ular Markaziy bankka to'lanadigan majburiy zaxiralar hajmini kamaytiradi va, juda yuqori bo'lmasda, ma'lum miqdorda daromad oladi.

Ikkinchidan, yirik tijorat banklari filiallari asosan resurslarni bosh bankning topshirig'iga ko'ra, mavjud bo'sh mablag'larni vaqtinchalik bir – biriga berib turadi. Shu tufayli, ular ushbu bozor xizmatlaridan foydalanishga ehtiyoj sezmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sa'yi harakatlari natijasida 2003 yildan yirik tijorat banklari respublika bo'yicha yagona vakillik hisobvaraqasiga o'tishi ular o'rtasida resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini berdi. Bu yerda bosh bank barcha filiallarning resurslarini erkin ravishda boshqarish imkoniyatiga ega bo'lib, ular likvidliligini ta'minlash yuzasidan umumiy nazoratni olib boradi.

Uchinchidan, kichik banklar joriy operatsiyalari jarayonida qo'shimcha resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish zaruriyati. Odatda kichik banklarda vaqtinchalik foydalanmaydigan resurslar hajmi yirik tijorat banklariga nisbatan sezilarli darajada past bo'ladi. Mijozlar iqtisodiy jihatdan samarali kredit loyihalarni taklif etishi ularni banklararo pul resurslari bozoriga murojaat qilishga undaydi. Chunki, ushbu bozor boshqa moliyaviy bozorlar va chetdan depozit mablag'larni jalb qilishdan ko'ra tezkorligi va barqarorligi bilan ustun turadi.

Tijorat banklari banklararo pul resurslari bozorining bir maromda ishlashida, uning ishonchliligi, tezkorligi va iqtisodiy jihatdan barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida banklararo pul resurslari bozori 1990 yillarning o'rtalaridan boshlab shakllana boshladi.

O'zbekistonda banklararo pul resurslari bozorida operatsiyalar Markaziy bank tomonidan 1996 yil 20 aprelda tasdiqlangan 41-sonli «O'zbekiston Respublikasida kredit resurslarning auksionini o'tkazish tartibi»ga asosan amalga oshiriladi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi bazasida Birja axborotlar diling tizimi orqali qisqa muddatlarda amalga oshiriladi.

Banklararo pul resurslari bozorini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi asosiy tendentsiyalar ushbu bozorning to'liq quvvat bilan ishlashiga iqtisodiy sharoit tug'dirmayapti.

Birinchidan, tijorat banklari ushbu bozorga erkin ravishda qatnashish huquqiga ega emasligi. Kredit resurslari auksionidan kredit olgan bank ushbu qarzni vaqtida to'lay olmasa, Markaziy bank uning vakillik hisobarag'idan kredit beruvchi bankning hisobiga o'tkazib beradi. Bizning nazarimizda, tijorat banklarining ushbu bozorda qatnashishiga quyilgan talablar banklararo pul resurslari bozori haqidagi tartibda belgilab qo'yilishi lozim.

Ikkinchidan, tijorat banklari qo'shimcha resurslarga bo'lgan ehtiyojining banklararo pul resurslari bozorida zudlik bilan qondirilmasligi. Chunki, banklar banklararo pul resurslari bozoridan mablag'larni olish jarayoni juda murakkab. Banklararo kreditlarni taqdim etish yoki uni olish uchun bir necha kun zarur bo'ladi. Buning natijasida banklarda banklararo kreditlarning oldi – berdisini birjadan tashqarida o'tkazishga moyillik tug'iladi. Chunki birja orqali olinadigan yoki taqdim etilayotgan banklararo kreditning amalga oshirish uchun hujjatlar tayyorlanishiga talab etilgan vaqtning o'zi ko'pchilik holatda ushbu operatsiyaning iqtisodiy mohiyatini yo'qotadi.

Uchinchidan, banklararo pul resurslari bozoriga mavjud talab va taklif etilayotgan resurslar va ularning shartlari to'g'risidagi ma'lumotning etishmasligi. Bu tijorat banklari qarz oluvchi bankning moliyaviy holati, likvidlilik darajasini aniq baholashning imkoniyatini bermaydi.

Fikrimizcha, banklararo pul resurslari bozorini rivojlantirish uchun ushbu kreditning o'rtacha foiz stavkasining doimiy ishlaydigan mexanizimini shakllantirish, banklararo kredit operatsiyalarini tartibga soladigan hujjatlar to'plamini ishlab chiqish, operatsiyalarda qatnashuvchi banklarning istagan paytda bozorga kirishini ta'minlaydigan texnik sharoitini va dasturiy ta'minotini tashkil etish, banklarning banklararo pul resurslari bozori haqida doimiy ravishda ma'lumot olishini ta'minlash zarur. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy bosqichda bank resurslarining manbalari juda ko'p qirrali bo'lib, mamlakatda moliya bozorlarining keng ko'lamda ishlashining ta'minlanishi ulardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Banklarning depozit bo'lmagan mablag'lari tarkibida moliya bozoridan jalb qilingan banklararo kredit (BK) resurslari asosiy salmoqni egallaydi. Banklararo kreditlar asosan qisqa muddatli xarakterga ega bo'lib, odatda ushbu kreditlarni berish va olish jarayoni o'zining tezkorligi bilan muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon bo'yicha asosiy operatsiyalar banklarning vakillik hisobvaraqlari doirasida amalga oshiriladi. Ya'ni, tijorat banklari o'zaro kelishuvga erishganda mablag'lar vakillik hisobvaraqlari orqali o'tkazib beriladi. Shu bilan birga, ushbu kreditlar tijorat banklari uchun nisbatan arzon va muddati jihatidan «uzun» mablag'lar hisoblanadi.

Tijorat banklari banklararo kredit bozorida quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratishi lozim:

- kredit oluvchining moliyaviy holatini baholash;
- kredit ob'ektini baholash;
- kreditning ta'minlanganligini baholash.

Kredit oluvchi bankning moliyaviy holatini baholashda:

a) bankning moliya bozoridagi iqtisodiy holati, uning barqarorlik darajasi hamda Markaziy bank va davlat boshqaruv organlari bilan o'zaro munosabatiga ahamiyat qaratiladi;

b) bank balansining passiv va aktiv qismidagi mablag'larning muddati va iqtisodiy jihatdan sifat darajasi tahlil qilinishi zarur.

Bizga ma'lumki, banklararo kredit resurslari bozori mamlakatimizda o'z faoliyatini olib bormokda va unda resurs sotish va sotib olish indikatorlarini e'lon qilib qatnashish huquqini olgan banklar o'z bo'sh resurslarini sotadi, majburiyatlarini bajarish maksadida resurs etmagan mablag'larini, o'z navbatida, boshqa banklardan jalb etadi.

Banklararo kreditlar kredit munosabatlari tizimida o'ziga xos o'rin egallab, butun bank tizimi rivojlanishiga etarli ta'sir ko'r-satadi. Nazariy jihatdan olganda banklararo kreditlar zamonaviy bank tizimida 2 ta pog'onada bo'ladi. Bular mablag'larning Markaziy bank bilan tijorat banklari o'rtasidagi harakatiga va tijorat banklari o'rtasidagi mablag'lar harakati farqlanadi. Banklararo kreditlarning normal holatda amaliyotda bo'lishi bank tizimi barqarorligini ta'minlovchi zaruriy shartdir.

Tijorat banklari o'z faoliyati davomida resurs jalb qilishi va bo'sh mablag'larni boshqa tijorat banklariga joylashtirishi mumkin, ya'ni resurslar ortiqchaligi va etishmovchiligi holatida bo'ladi. Banklararo kreditlash bozori moliya bozorining yirik segmenti hisoblanib, u yerda banklararo kredit va banklararo depozit operatsiyalari amalga oshiriladi.

Xorijiy davlatlar bank tizimi amaliyoti shuni ko'satmokdaki, bank tizimida inqiroz holati boshlanishi aynan banklararo kredit resurslari bozoridan boshlanib, u shiddat bilan tarqalib kengayadi.

Banklararo kreditlar muddatiga ko'ra:

- muddatli;

- talab qilib olinadigan (on sall) kreditlarga bo'linadi.

Muddatli banklararo kreditlar ma'lum muddatga beriladi ham-da bir marotabalik va aniq bir bankka kredit liniyasi ochish yo'li bilan ajratilishi mumkin.

Talab kilib olinadigan banklararo kreditlar bank kreditor to-monidan istalgan vaqtda, ya'ni resurslarga ehtiyoj sezilganda talab qilish imkoniyatini beradigan kreditdir. "On sall" kreditlari xo-rijy davlatlar amaliyotida keng tarqalgan.

Banklararo kreditlar bitimi 2 yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin:

- kredit shartnomasi tuzish yuli bilan;
- faks yoki Reuter tizimi orqali ma'lumotlar, ya'ni takliflar almashish orqali amalga oshiriladi.

Banklararo kreditlarning hajmi ancha kengayishi iqtisodiy o'sish bosqichida banklarning ushbu karz mablag'lariga, resurslarga qaram bo'lib qolishiga olib keladi. Qisqa vaqtlarda banklararo kreditlar bozori to'lovsizligi natijasida ishonchli munosabatlarning yirik ishtirokchisi banklarning ushbu bozordan chiqib ketishi bank tizimini qisman inqiroz holatiga olib kelishi mumkin. Albatta, turli to'lovsizlik natijasida bank mijozlari o'rtasida xavotir yuzaga keladi va ular o'z mablag'larini qaytarib olishni talab etadi. Mijozlar ko'pchiligi mablag'larini qaytarib olishlari bank resurs bazasining hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va bank aktiv operatsiyalari salmog'ini kamaytiradi.

Banklararo kreditlar eng tezkor, operativ mablag'lar manbai hisoblanib, u orqali banklar joriy to'lovlari pozitsiyasini va likvidligini ta'minlaydi.

Banklararo shartnomalarning aksariyati muddatli shaklda, qol-ganlari esa muddatsiz shaklda tuziladi. Iqtisodiy barqarorlik bo'lmagan sharoitda kredit bozorida qanday vaziyat yuzaga kelishini va bankning moliyaviy ahvoli qanday bo'lishini oldindan bilish qiyin. Chunki kredit resurslari etishmasligi yoki ortiqcha bo'lib qolishi mumkin. Banklararo shartnomaning muddatsiz shakli banklararo kreditni shartnomada belgilangan eng qisqa muddatga berishni ko'zda tutadi. Bu muddat tugagandan keyin kredit muddatsiz kreditlar toifasiga o'tadi, ya'ni kreditor bank tomonidan oldindan ma'lum qi-lingan holda istalgan

paytda talab qilib olinishi mumkin (On call). Kredit resurslarini qarzga olgan bank ularni qaytarish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u boshqa banklarning muddatli qarzlaridan, ya'ni depozitlardan foydalanadi.

Banklararo kreditlarning ikki shakli mavjud.

Bular:

- overdraft shaklidagi kredit;
- banklararo kredit resurslari bozorida "resurslarni sotish" shaklidagi kredit.

Xorijiy davlatlar amaliyotida, xususan, Rossiya Federatsiyasida overdraft kreditlarini Markaziy bank tijorat banklariga "over-nayt" yoki "kun ichidagi kredit" sifatida takdim etishlari mumkin. Bu esa banklarga resursga ehtiyoj sezilganda ancha engillik yaratadi. Izlanishlar davomida mamlakatimiz bank tizimida tijorat bank-larini overdraft kreditlash amaliyoti mavjud emasligi aniklandi. Hozirda mamlakatimizda ham xorijiy davlatlarda bo'lgan indikatorlar kabi, ya'ni UZIBOR, UZIBID, UZIAR indikatorlari mavjud va unda banklararo kredit resurslari elektron bozorida qatnashuvchi banklarning stavkalari e'lon qilinadi. Bunda indikatorlar quyidagicha hisoblanadi:

UZIBOR – (Uzbekistan Interbank Offered Rate) market-meykerlarning milliy valyutadagi takliflarining o'rtacha stavkasi bo'lib, u 4-ta eng yuqori (yuqori kvartili) va 4-ta eng past (quyi kvartili) stavkalarini chiqarib tashlagan holda, qolgan 8-ta stavkalar summasini 8-ga bo'lish yo'li bilan hisoblandi.

UZIBID – (Uzbekistan Interbank Bidding Rate) market-meykerlarning milliy valyutadagi jalb etish yoki talabining o'rtacha stavkasi bo'lib, u pul mablag'larini sotib olishga doir 4-ta eng yuqori (yuqori kvartili) va 4-ta eng past (quyi kvartili) stavkalarini chiqarib tashlagan holda, qolgan 8-ta stavkalar summasini 8-ga bo'lish yo'li bilan hisoblandi.

UZIAR - (Uzbekistan Interbank Average Rate) UZIBOR va UZIBID stavkalari o'rtasidagi o'rtacha miqdor (mediana).

UZIBOR va UZIBID indikatorlari market-meykerlar tomonidan e'lon qilinadigan stavkalar asosida pul resurslarini jalb etish va joylashtirishning quyidagi standart muddatlari bo'yicha hisoblanadi:

overnayt	1 hafta	1 oy	2 oy	3 oy	6 oy	9 oy	12 oy
----------	---------	------	------	------	------	------	-------

3-rasm.¹⁴UZIBOR va UZIBID MUDDATI BO'YICHA HISOBLANISHI

Bugungi kunda ushbu bozorda mamlakatimizning 29 ta tijorat banklaridan 16 tasi ishtirok etadi.

Banklararo bozorda mablag'lar asosan quyidagi ko'rinishlarda mavjud bo'ladi.

- banklararo kreditlar;
- banklararo depozitlar;
- korrespondent hisoblarining qoldiq mablag'lari;
- vakolatli banklar tomonidan iqtisodiyotni ustivor yo'nalishlarini rivojlantirishga mo'ljallangan markazlashtirilgan kredit mablag'lari;
- auktsion asosida taqsimlanadigan markazlashtirilgan kredit mablag'lari.

Tijorat banklari banklararo bozorga asosan quyidagi holatlarda murojaat qiladi:

- O'zbekiston Respublikasi markaziy banki (MB) tomonidan o'rnatilgan zahira me'yorini bajarishlari uchun;
- investitsion loyihalar va kredit operatsiyalariga mablag'lar jalb qilishlari uchun;
- jori likvidligini ushlab turish uchun (shu jumladan, naqd pullarni mustahkamlash uchun);
- arbitraj o'tkazishlari uchun.

Mamlakat iqtisodiyotida ko'p sonli tijorat banklari va ularning filiallari mavjud bo'lgan sharoitda ular o'rtasida o'zaro aloqalar o'rnatish talab etiladi. Bu aloqalar korrespondentlik munosabatlari tizimi orqali amalga oshiriladi.

¹⁴ Muallif tomonidan mustaqil tuzildi.

Korrespondentlik munosabatlari korrespondent banklar o'rtasidagi ishonchning muayyan darajasini aks ettirib, banklarning o'zaro topshiriqlari bajarilishiga imkoniyat yaratadi. Korrespondentlik munosabatlari o'zaro bank xizmatlarining keng majmuini nazarda tutadi.

Bizning nazarimizda, mohiyati, maqsadi va vazifalari xususida so'z yuritishdan oldin, banklararo kreditlarni iqtisodiy mohiyatini anqlab olish juda muhim.

Xorijiy va mahalliy iqtisodchilar "banklararo kredit" tushunchasini har xil talqin qilishadi.

Professor O.I. Lavrushin "Banklararo kreditlar" – bu banklar bo'sh pul mablag'larini bir – birlari bilan banklararo resurs bozorida almashtirish va oshirishidir degan¹⁵.

Banklararo kreditning umumiy kredit tushunchasi bilan bog'liqlik tarafini har hil bo'lgan iqtisodiy lug'atlardagi fikrlar orqali ya'ni kreditning ahamiyatini aniqlash bo'yicha ko'rib chiqamiz.

Bizning fikrimizcha, banklararo kreditlash ham qiymat harakatining teskari jarayoni hisoblanadi –bir bankda resurslarini oshirish uchun ehtiyoj bor yana bir bankda esa resurs bazasida ortiqcha pul.

Bizning fikrimizcha, banklararo kredit xuddi bank kreditidek kreditor sifatida bank ishtirok etadi biroq, banklararo kreditning o'ziga xosligi shu yerda tugamasdan bank nafaqat kreditor sifatida nomoyon bo'ladi balki qarzidor sifatida ham ishtirok etadi. Banklararo kredit, banklar o'rtasida belgilangan shartnoma muddati roziligi va naqd bo'sh pul mablag'lariga chambarchas bog'liqdir.

Banklararo kredit – bu kredit muassasalarining vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'lari banklar tomonidan jalb qilinishi va o'zaro joylashtirilishidir. Tijorat banklari va markaziy banklar kredit munosabatlarining sub'ektlari hisoblanadi. Bo'sh kredit resurslariga ega banklar ularni banklararo kreditlar bozori – pul bozorida sotadi. Banklar banklararo kreditlar yordamida o'z

¹⁵ Лаврушин О.И. и др. Банковское дело. – М.: "ФинС", 2001

likvidligini operativ boshqarishi, zarur holda mablag'larni tez jalb qilishi yoki vaqtinchalik bo'sh turgan kredit resurslarini joylashtirishi mumkin. O'z operatsiyalarini nomuntazam ravishda, yuzaga kelayotgan moliyaviy vaziyatga qarab o'tkazadigan banklar banklararo kreditlar bozori ishtirokchilari hisoblanadi. Diler banklar banklararo kreditlar bozorining eng faol operatorlari bo'lib, ular o'z nomidan va o'z hisobidan ish ko'radi, qarz oluvchi yoki kredit sifatida amal qilishi mumkin. Ular foiz marjasi, mablag'larni joylashtirish va jalb qilish stavkalari o'rtasidagi tafovut tarzida daromad oladi. Nufuzli mijozlarga ega bo'lgan banklarda bo'sh kredit resurslari ko'p bo'ladi. Banklararo kreditlash moliya bozorining eng yirik segmentlari qatoriga kiradi. Banklararo kreditlar ikkinchi daraja banklar balansining likvidligini quvvatlash, shuningdek aktiv operatsiyalar o'tkazish va korrespondentlik hisobvaraqlarini to'ldirish uchun eng operativ manba hisoblanadi.

Banklararo kreditlar bozorida foiz stavkalari darajasi kreditlar muddatlariga qarab differentsiallanadi.

Banklararo kreditlar bozorida kredit bitimlari standart vaqt rejimlarida va boshqa muddatlarga tuziladi. Banklararo kreditlarni farqlashda banklararo bitimlar nomiga qarab mo'ljallanmaslik kerak. Masalan, *overnayt* banklararo kreditlarining aksariyati depozitlar sifatida qaralishi lozim. *Onkol ssudalari* ham banklararo kreditlar qatoriga kiradi. Onkol ssudasi – bu qaytarishlik, to'lovlik va muddatlilik, ta'minlash, garov qo'yish va maqsadli foydalanish shartlarida bir yildan o'ttiz yilgacha muddatga beriladigan banklararo ssuda.

Markaziy bank quyidagi bank ssudalarini beradi:

-ikkinchi daraja banklarda mablag'lar vaqtinchalik mavjud bo'lmagan yoki korrespondentlik hisobvaraqlarida mablag'lar etarli bo'lmagan holda to'lovlarni amalga oshirish va mijozlar topshirig'iga ko'ra pullarni o'tkazish uchun mo'ljallangan kunduzgi bank ssudalari;

-overnayt – banklarning Markaziy bankdagi korrespondentlik hisobvaraqlarida debet qoldig'i yuzaga kelgan holda banklar hisob-kitoblarni yakunlashi uchun bir kechaga beriladi;

- oxirgi instansiya kreditori sifatida beriladigan qarzlار;
- maxsus ahamiyatga molik qarzlار.

Banklararo bozor ko'p sonli kontragentlar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bank normal faoliyat olib borgan holda unda zaxiralar va ortiqcha resurslarga ehtiyoj tug'iladi. Ehtiyoj yoki ortiqcha resurslar bankning korrespondentlik hisobvarag'iga mijozlarning to'lovlari tushishini aniq redalashtirish mumkin emasligi tufayli yuzaga keladi. Shu sababli bankda vaqti-vaqti bilan yuzaga keladigan ortiqcha resurslar mijozlarning hisobvaraqlariga tushuvchi pul mablag'laridan tashkil topadi va tegishli ravishda qisqa muddatli xususiyat kasb etadi.

Tijorat banklari resurslari tarkibida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi asosida berilayotgan mablag'lari arzon moliyaviy manba bo'lib, tijorat banklari ushbu resurslarni mumkin qadar ko'proq jalb etishga ishtiyoqmand bo'lishadi. Chunki tijorat banklar tomonidan aktiv operatsiyalarga joylashtirilgan ushbu mablag'larning foydalilik darajasi yuqori bo'lish bilan birga, banklar uchun nisbatan moliyaviy barqaror manba hisoblanadi.

Respublikamiz tijorat banklari resurslari tarkibida ushbu manba hisobidan shakllantirilayotgan mablag'lar amaliyotdagi sharoitlarning taqilili natijasida bu manbadan foydalanish imkoniyati barcha banklar uchun qam bir hilda emasligining guvohi bo'ldik.

Tijorat banklari depozit bo'lmagan resurslari tarkibida yirik manbalardan biri banklararo kreditlar hisoblanadi. Banklararo kredit tijorat banklariga qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini zudlik bilan ta'minlash imkoniyatini berish bilan birga, resurslarni muddati jihatidan barqaror manbalar hisobidan shakllantirishga sharoit yaratadi. Lekin, shuni ta'kidlash lozimki, respublikadagi tijorat banklari ushbu manbadan faol ravishda foydalanishmaydi. Bu holat respublikamizda banklararo kredit bozorining yuqori darajada rivojlanmayotganligidan dalolat beradi.

2-Bob. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining banklararo resurs bozorida operatsiyalari va ularning amaldagi holati .

2.1. Tijorat banklari resurslarini shakllantirishning amaldagi holati.

Hozirgi zamon tijorat banklarining resurs bazasi tarkibida o'z mablag'larining ulushi odatda ancha kichikligini e'tirof etish mumkin. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari rivojlana borgan sari ularning o'z mablag'larining ulushi ham oshib boradi. Shu bilan birga passiv operatsiyalarning rivojlanishi bankning umumiy jalb qilingan mablag'larining ham salmog'ini oshishiga olib keladi. Bank barqarorligini ta'minlash, xavf-xatarli qo'yilmalarni sug'urtalash hamda aktiv va passiv operatsiyalar orasidagi chegaralarni aniqlashda bankning o'z kapitali muhim baza hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham, bank o'z kapitalining funktsiyalari, roli va hajmi boshqa tadbirkorlik sohalariga qaraganda o'zgacha xususiyatlarga ega. Bank faoliyatida uning kapitali rolining muhimligi shundan dalolat beradiki, faqatgina oxirgi yillarda banklarning kapitallashuvini jadallashtirishda hukumatimiz tomonidan katta e'tibor berilmoqda.

Odatda banklar o'z kapitali va rezervlari hisobiga mablag'larga bo'lgan umumiy ehtiyojning 10 foizidan kamroq qismini qoplaydi, nomoliyaviy korporatsiyalarda esa ushbu munosabat 40-55 foizni (ba'zi tarmoqlarda undan ham yuqori) tashkil etadi.

Bankning aksionerlik kapitali va unga tenglashtirilgan moddalarning muhim bir funktsiyasi sifatida bank barqarorligini va faoliyati samaradorligini ta'minlash bo'lib, unda bank mablag'lari tarkibi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'z mablag'lar – bank uchun moliyaviy resurslar manbasi. U bank faoliyati boshlang'ich bosqichida qator birinchi navbatdagi xarajatlar amalga oshirilayotganda (er va binoni sotib olish, asbob – uskunalarni o'rnatish, ishchi xodimlarga ish haqini to'lash va hokazolar) nihoyatda zarurdir. Keyingi bosqichlarda ham, bank operatsiyalarini kengaytirishda, bankning o'z kapitali muhim rol o'ynaydi. Bankning o'z kapitali hisobiga turli xildagi rezervlar tashkil qilinadi. Chet elda garchi bank operatsiyalari ko'lamini kengaytirish

uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar manbasi bank foydasi bo'lsada, ba'zan yangi aktsiyalarni va uzoq muddatli zayomlarni muomalaga chiqarish orqali yirik strukturaviy xarakterdagi tadbirlar (bo'limlarni kengaytirish, qo'shib yuborish va boshqalar) amalga oshiriladi.

Albatta, bank kapitali, avvalom bor, uning iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlashining asosi hisoblanadi. Bankda doimiy ravishda barqaror kapital bazasining bo'lishi bank faoliyatini doimiy ravishda xavf-xatarsiz faoliyat yuritishi bankning operatsiyalari ko'lamini kengaytira borishga asos bo'ladi. Bank kapitali bazasining barqaror bo'lishi uning riskli operatsiyalar olib borishga ham bir manba sifatida ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga bank tomonidan tashkil qilingan turli fondlarni bank kapitali deb qarash bank kapitali tushunchasining bankning o'z mablag'lari tushunchasi bilan ajralib ketishiga va ular o'rtasidagi farqning yo'qolib borishiga olib kelishi mumkin.

Bank kapitali bu bank ta'sischi tomonidan qo'yilgan mablag'lar bo'lib, u ustav kapitali va rezerv fondlari, hamda taqsimlanmagan foydadan iborat. Bankning kapitali to'g'risida gapirganda, avvalom bor, bank kapitali uning ta'sischi tomonidan to'plangan mablag' ekanligiga e'tibor berish lozim. Turli xil fondlar, taqsimlanmagan foyda esa bank faoliyati maxsuli sifatida yuzaga kelishi mumkin va ular bank kapitalining o'zgarishiga, ya'ni oshib borishiga zamin yaratadi.

Barcha rivojlanayotgan davlatlarda bank kapitali tashkil qilishda uning eng kam miqdori, banklarning moddiy texnika bazasining va kadrlar kasb mahoratining bozor iqtisodiyoti yuksak rivojlangan davlatlardan nisbatan pastligi bank tizimi tashkil qilishning birinchi bosqichlarning xususiyatlaridan hisoblanadi. Bank kapitalining tashkil topishining yana bir xususiyati bu sobiq sotsalistik tizimdagi faoliyatni bozor munosabatiga transformatsiya qilishdan iborat va bu hol chuqur iqtisodiy va moliyaviy krizislar asosida kechishi bilan ham xarakterlanadi.

Tijorat banklari ustav kapitali nisbatan yuqori barqarorlikka ega bo'lib, bank qiyin moliyaviy holatga tushganda undan asosiy himoya qilish

vositasi sifatida foydalanadi. Tijorat banklari ustav kapitali salmog'ini bank passivlari tarkibidagi ulushining barqaror miqdorini ta'minlashga erishish ularning moliyaviy jihatdan baquvvat bo'lishiga xizmat qiladi.

Tijorat banklari depozit bo'lmagan resurslari tarkibida yirik manbalardan biri banklararo kreditlar hisoblanadi.

Banlararo pul resurslari bozori moliya bozorining asosiy segmentlaridan biri hisoblanib, tijorat banklariga vaqtincha bo'sh mablag'laridan samarali foydalanish va qo'shimcha moliyaviy resurslarga bulgan ehtiyojini zudlik bilan qondirishga imkoniyat yaratadi. Banklararo pul resurslari bozorida qisqa muddatli kredit resurslar sifatida ishtirok etayotgan mablag'lar butun bank tizimidagi mavjud bo'sh mablag'lar hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar birinchidan ikkinchisiga o'tish orqali ularning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'ining umumiy hajmi o'zgarishsiz qoladi.

Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdorini o'rnatadi va bank tizimining rivojlanishiga qarab o'zgartirib boradi.

Ustav fondi eng kam miqdori o'rnatilishi, unga qarab, xavf – xatarlar darajasi aniqlanishi bilan bog'liqdir. Ya'ni, aynan shu ko'rsatkichga qarab, bank faoliyati boshlang'ich nazorat qilinadi.

Ustav kapitalining oshirilishi chet ellik hamkorlar talabiga javob berishi va respublikamiz bank tizimi barqaror bo'lishi asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu esa bank aktiv operatsiyalarining hajmi va samaradorligini oshiradi.

Mamlakatimizda 1991 yildan buyon tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdori bir necha marta qayta ko'rib chiqilgan. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin:

1-jadval.**O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdoriga qo'yilgan talablarning o'zgarishi¹⁶.**

Yillar	Aholisi 0.5 mln. kishidan ko'p bo'lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun	Aholisi 0.5 mln. kishidan kam bo'lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun	Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
1998 yil 1 yanvardan	1.5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	0.75 mln. AQSh dollari ekvivalentida	5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	0.3 mln. AQSh dollari ekvivalentida
1999 yil 1 yanvardan	2.0 mln. AQSh dollari ekvivalentida	1.0 mln. AQSh dollari ekvivalentida	5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	0.3 mln. AQSh dollari ekvivalentida
2000 yil 1 yanvardan	2.5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	1.25 mln. AQSh dollari ekvivalentida	5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	0.3 mln. AQSh dollari ekvivalentida
2002 yil 14 maydan	2.5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	1.25 mln. AQSh dollari ekvivalentida	5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	1.25 mln. AQSh dollari ekvivalentida
2005 yil 1 iyuldan*	3 mln. AQSh dollari ekvivalentida		5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	1.5 mln. AQSh dollari ekvivalentida
2006 yil 1 yanvardan	4 mln. AQSh dollari ekvivalentida		5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	2 mln. AQSh dollari ekvivalentida
2007 yil 1 yanvardan	5 mln. AQSh dollari ekvivalentida		5 mln. AQSh dollari ekvivalentida	2.5 mln. AQSh dollari ekvivalentida
2008 yil 1 yanvardan	5 mln. evro ekvivalentida		5 mln. evro ekvivalentida	2.5 mln. evro ekvivalentida
2011 yil 1 yanvardan	10 mln. evro ekvivalentida		10 mln. evro ekvivalentida	5 mln. evro ekvivalentida

2005 yil 1 iyuldan boshlab shahar aholisi soni inobatga olinmaydi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda tijorat banklarining ustav kapitali bosqichma – bosqich oshirilib borilmoqda. Ustav kapitalining bunday bosqichma bosqich oshirib borilishi ijobiy holat. Chunki, ustav kapitali

¹⁶ Markaziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

yuqorida ta’kidlanganidek, bank kapitalining eng barqaror manbai hisoblanadi. Bank ustav kapitali miqdori faqat o’z aksiyalarini bank qaytib sotib olgandagina kamayishi mumkin. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 apreldagi 1317-sonli "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va uning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qaroriga asosan 2011 yil 1 yanvardan boshlab yangitdan tashkil etilayotgan banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini quyidagicha belgilandi:

- ✦ tijorat banklari uchun - so’m ekvivalentida 10 mln.evrogacha;
- ✦ xususiy banklar uchun - so’m ekvivalentida 5 mln.evrogacha.

2-jadval.

Bank tizimi rivojlanishining asosiy ko’rsatkichlari dinamikasi¹⁷

Ko’rsatkichlar		01.01.2012	01.01.2013
1	Aktivlar (mlrd.so’m)	27500.0	35700.0
	Aktivlar o’sishi (%)	27.12%	29.89%
2	O’z mablag’lari manbai(kapital) (mlrd.so’m)	5000.0	6200.0
	Kapitalning o’sishi(%)	18.04%	24.00%
3	Iqtisodiyotning real sektoriga kreditlar(mlrd.so’m)	15700.0	20400.0
	Kredit portfeli o’sishi (%)	31.83%	29.94%
4	Tijorat banklarida aholini omonatlari (mlrd.so’m)	3238.8	4012.1
	Omonatlarning o’sishi (%)	48.83%	23.88%
5	Tashkilotlar va korxonalardan jalb qilingan mablag’lar (mlrd.so’m)	17400.0	22800.0
	Barchasini o’sishi(%)	41.59%	31.03%

Tahlil natijalari shuni ko’rsatadiki, 2012 va 2013-yillar davrida bank passivlari tarkibida bankning o’z mablag’lari manbai bilan ta’minlanganlik darajasi biroz pasaygan. Shunga binoan, 2012-yil 4-chorak yakunlari bo’yicha bizning tahlilda ishtirok etayotgan banklarning o’z mablag’lari manbai jami aktivlardagi ulushi 11.86% ni tashkil etgan. Ushbu ko’rsatkich 2011-yilda 4-choragida 12.89% ni tashkil etgan.

¹⁷ Ahbor-Reyting ” reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30, fevral 2013-y.

Bir paytning o'zida tijorat banklarining jalb qilgan mablag'lari ulushining biroz oshganligi kuzatildi.

Aksionerlik kapitali 2011-yil 4-chorak yakunlari holatiga 87.11% ni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yil 4-chorak yakunlari bo'yicha ushbu ko'rsatkich 88.14% ni tashkil etgan.

2012-yil natijalari bo'yicha bank resurslarining ko'payishiga sabab bo'lib, mijozlar depozitlarining 35.22% ga oshganligi sabab bo'ldi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, depozitlar tarkibida hali ham talab qilib olinguncha depozitlar ko'p ulushni hosil qilmoqda(36.48%), va aksincha muddatli depozitlar esa kamroq ulushni tashkil qilgan(13.14%). Bunday holatda, bizning bank tizimimiz ko'proq e'tiborni muddatli depozitlarga qaratish kerak deb hisoblaymiz.

3-jadval.

Banklar ustav kapitalining o'z mablag'lari manbaining tarkibidagi ulushining dinamikasi¹⁸

Ko'rsatkichlar		2011-yil, 4-chorak	2012-yil, 4-chorak
1.	Banklarning ustav kapitali	1687924	2038905
2.	Banklarning o'z mablag'lari manbai	2499326	3091541
3.	Banklar ustav kapitalining o'z mablag'lari manbaidagi ulushi	67.52%	65.95%

Jadval ma'lumotlaridan shuni kuzatish mumkinki, 2011-yilda banklar ustav kapitalining o'z mablag'lari manbaidagi ulushi 67.52% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2012-yil bu ko'rsatkich biroz pasaygan bo'lib, 65.95% ni tashkil qiladi.

¹⁸ Ahbor-Reyting " reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30, fevral 2013-y.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari passivlari tarkibi¹⁹

Passivlar		01.01.2012		01.01.2013	
		mln. so'm	% da	mln. so'm	% da
1	Talab qilib olinguncha depozitlar	6721272	34.67%	9507195	36.48%
2	Jamg'arma depozitlar	867074	4.47%	1316633	5.05%
3	Muddatli depozitlar	2948958	15.21%	3424976	13.14%
4	O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to'lovlar	-	0.00%	-	0.00%
5	Boshqa banklarga to'lovlar	1069109	5.51%	1337957	5.13%
6	Keyinchalik sotib olish sharti bilan sotilgan qimmatli qog'ozlar	-	0.00%	536	0.00%
7	Qarzga olingan ssudalar	2954113	15.24%	4510364	17.31%
8	Subordinadlashgan qarzlar	45774	0.24%	84574	0.32%
9	To'lash uchun hisoblangan qarzlar	57046	0.29%	86986	0.33%
10	Boshqa majburiyatlar	2224447	11.47%	2701776	10.37%
	Jami	16887793	87.11%	22970995	88.14%
Aksiyonerlik kapitali					
11	Oddiy aksiyalar	1656023	8.54%	1999520	7.64%
12	Imtiyozli aksiyalar	19989	0.10%	23952	0.09%
13	Qo'shilgan kapital	11612	0.06%	15433	0.06%
14	Devolvatsiya zaxirasi	102145	0.53%	136142	0.52%
15	Taqsimlanmagan foyda	668331	3.45%	836609	3.21%
16	Qayta baholashdan qolgan o'zgarishlar	41226	0.21%	79886	0.31%
17	Barcha aksiyonerlik kapital	2499326	12.89%	3091542	11.86%
	Barcha passivlar	19387119	100.00%	26062537	100.0%

¹⁹ Ahbor-Reyting " reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30, fevral 2013-y.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, passivlar tarkibidagi ko'rsatkichlar 2011-2012-yillarda o'sgan bo'lib, faqat sotib olish sharti bilan sotilgan qimmatli qog'ozlar ulushi 2011-yilda bank passivi tarkibida mavjud emas.

Tijorat banklarining barqarorlik darajasini ekzogen va endogen faktorlar orqali aniqlanadi. Banklarning keng ko'lamda bankrotlikka uchrashi ekzogen faktorlarga to'g'ri keladi. Bu - mamlakat yoki hududdagi siyosiy holat, umumiy iqtisodiy holat, moliya bozoridagi holat, hamkor banklarning ishonchliligi, bank mijozlarining ishonchliligi.

Agar ekzogen faktorlarning ta'siri barqaror bo'lsa, u holda bankning holati endogen faktorlarda aniqlanadi. Bular: bank strategiyasi, o'z kapital mablag'lari bilan ta'minlanganligi, kadrlar malakasining darajasi, menejment darajasi va uning ichki siyosati.

2012-yilda bank tizimi kapitali 24.3 foizga oshishi kuzatildi. Oxirgi 3 yilda ushbu ko'rsatkich 2 baravarga oshgan. Shu bilan birga 2012-2013-yillar mobaynida bizning tahlilimizda ishtirok etayotgan banklar kapitalining monandlik ko'rsatkichi 0.28% ga kamayganligi kuzatildi. Lekin bunga qaramasdan, "Ahbor reyting" RA shuni ta'kidlab o'tadiki, ushbu ko'rsatkichlar hozirgi vaqtda yetarli darajada yuqori hisoblanadi. Shu bilan birga, milliy bank tizimimizni kapital daraja darajasini yuqori darajasini yuqori darajada saqlab turishi uchun yirik kapitalga ega bo'lgan strategik muhim banklarni ustav kapitalini davlat ulushini oshirish hisobiga ko'paytirib boriladi hamda Markaziy bank tomonidan kapital daraja darajasini oshirilishiga qattiq siyosat yuritiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, 2012-yil 4-choragida natijalariga asosan bank umumiy kapitali va birinchi darajali kapitali monandligi bizning tahlil jarayonimizda ishtirok etgan banklar misolida 16.75% ga va 15.84% ga erishildi.

5-jadval.

Tijorat banklarining depozitlar dinamikasi²⁰

Ko'rsatkichlar		01.01.2012		01.01.2013	
		mln.so'm	% da	mln.so'm	%da
1	Tijorat banklari jami depozitlari hajmi	10537355	100.00	14248803	100.00
-	So'm	7663151	72.72	10473034	73.50
-	valuta	2874204	27.28	3775769	26.50
2	Yuridik shaxslar depozitlari	7661824	72.71	10653023	74.76
-	So'm	5224987	49.59	7503902	52.66
-	valuta	2436837	23.13	3149121	22.10
2.1	Talab qilib olinguncha va 30 kungacha bo'lgan muddatdagi	5780493	54.86	8262762	57.99
-	So'm	3648295	34.62	5465414	38.36
-	valuta	2132198	20.23	2797348	19.63
2.2	Jamg'arma depozitlar	63933	0.61	128980	0.91
-	So'm	55158	0.52	113408	0.80
-	valuta	8775	0.08	15572	0.11
2.3	Muddatli depozitlar	1817398	17.25	2261281	15.87
-	So'm	1521534	14.44	1925080	13.51
-	valuta	295864	2.81	336201	2.36
3	Jismoniy shaxslar depozitlari	2875531	27.29	3595780	25.24
3.1	Talab qilib olinguncha va 30 kungacha bo'lgan muddatdagi	2438164	23.14	2969132	20.84
-	So'm	437367	4.15	626648	4.40
-	valuta	940779	8.93	1244432	8.73
3.2	Jamg'arma depozitlar	803141	7.62	1187653	8.34
-	So'm	734258	6.97	1108650	7.78
-	valuta	68883	0.65	79003	0.55
3.3	muddatli depozitlar	1131611	10.74	1163695	8.17
-	So'm	854386	8.11	768388	5.39
-	valuta	277225	2.63	395306	2.77

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tijorat banklari jami depozitlari hajmi 3711448 ga o'sgan bo'lib, xorijiy valutaga nisbatan o'sish surati milliy valutada ko'proqni tashkil qiladi. Shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari

²⁰ Ahbor-Reyting " reyting agentligi. Bank tizimi tahlili №30, fevral 2013-y.

ham zezilarli darajada o'sgan bo'lib, depozitlar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlarning ulushi yuqori, aksincha, muddatli depozitning ulshushi kamroq. Ammo 2011-yilga nisbatan yuridik va jismoniy shaxslarning muddatli depozitlar ulushi 2012-yilda o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

2.2.O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining banklararo resurs bozorida faoliyati va uning tahlili.

O'zbekiston Respublikasi real sektorini rivojlantirish va kichik biznesni qo'llab quvatlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan va bunda tijorat banklariga ularni moliyalashtirish vazifasi yuklatilgan. Ushbu jarayonlarda har bir bankning ishtirok etishi to'g'ridan-to'g'ri ularning mablag'larini boshqarish darajasi bilan bog'liq. Boshqa tomondan esa banklarni likvidliligi va rentabelligi darajasi mavjud aktiv va passivlarini boshqarish samaradorligiga bog'liqdir.

Banklar vaqtinchalik erkin aktivlarni joylashtirish, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun resurslarni jalb qilish va o'zini likvidliligini ta'minlash maqsadida banklararo bozorda ishtirok etadilar. Banklararo bozor ushbu mablag'larga ehtiyoji bo'lgan va yuqori rentabellikga ega bo'lgan biznes sub'ektlari o'rtasida erkin pul mablag'larini qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Sanab o'tilgan vazifalarni bajarish uchun yaxshi rivojlangan banklararo bozor mavjud bo'lmog'i lozim.

Banklararo bozorda mablag'lar asosan quydagi ko'rinishlarda mavjud bo'ladi.

- banklararo kreditlar;
- banklararo depozitlar;
- korespondent hisoblarining qoldiq mablag'lari;
- vakolatli banklar tamonidan iqtisodiyotni ustivor yo'nalishlarini rivojlantirishga mo'ljallangan markazlashtirilgan kredit mablag'lari;
- auksion asosida taqsimlanadigan markazlashtirilgan kredit mablag'lari.

6-jadval.

**O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy monetar indikatorlar
darajasi va dinamikasi²¹**

Ko'rsatkichlar	Yillar					2012 yilda 2008 yilga nisbatan o'zgarishi
	2008	2009	2010	2011	2012	
Monetizatsiya koeffitsienti, %	18,8	20,0	21,0	21,7	-	4,4 f.p.
Inflyatsiyaning yillik darajasi, %	7,8	7,4	7,3	7,6	7,0	0,8 f.p.
Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi, %	14,0	14,0	14,0	12	12	-2,0
Tijorat banklarining so'mdagi depozitlari bo'yicha majburiy zaxira stavkasi, %	15,0	12,5	12,5	12,5	12,5	-2,5
Tijorat banklarining so'mdagi qisqa muddatli kreditlarining o'rtacha yillik foiz stavkasi, %	16,4	15,9	13,8	13,2	13,6	-2,8 f.p.
Tijorat banklarining so'mdagi uzoq muddatli kreditlarining o'rtacha yillik foiz stavkasi, %	16,8	15,9	13,0	11,8	12,2	4,6 f.p.
Tijorat banklari kredit quyilmalarining umumiy miqdori, mlrd. so'm	6374,4	8558,2	11539,3	15652	20392	3,2 marta
Tijorat banklari depozitlarining umumiy miqdori, mlrd. so'm	5771,6	8703,1	13236,3	18042	23725	4,1 marta
Tijorat banklari kapitalining umumiy hajmi, mlrd. so'm	2104,3	3010,4	4100,1	5334	6200	3,5 marta
Tijorat banklari talab qilib olinadigan depozitlarining brutto depozitlar hajmidagi salmog'i, %	58,5	67,5	64,6	63,0	60,0	1,5 f.p.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda monetizatsiya koeffitsientining amaldagi darajasi past. Bu esa, inqirozdan keyingi barqaror rivojlanishga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Chunki, monetizatsiya koeffitsientining past darajada ekanligi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik muammosini hal etish imkonini bermaydi. Xalqaro valyuta fondi ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, monetizatsiya koeffitsienti kamida 30 foizni tashkil etishi lozim.

Tahlil qilingan davr mobaynida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi barqaror darajada saqlanib qolgan. Bu esa, tijorat banklari kreditlari foiz stavkalarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi kerak. Ammo Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini doimiy kreditlash amaliyoti mavjud emas. Shu sababli, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi bilan tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud emas.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2008-2012 yillarda Markaziy bankning majburiy zaxira stavkasi yuqori darajada qolgan. Bu esa, banklarning resurs salohiyatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Bu esa, jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadi. Tahlil qilingan davr mobaynida tijorat banklari brutto depozitlari hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog'i yuqori darajada qolgan. Chunki, majburiy zaxira stavkalari yuqori bo'lgan sharoitda tijorat banklari muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini oshira olmaydi.

2008-2012 yillarda tijorat banklari kreditlari, depozitlari va umumiy kapitali miqdorlari o'sish tendentsiyasiga ega bo'ldi. Bu esa, so'nggi yillarda banklarning kapital va depozit bazalarining yuqori sur'atlarda o'sishi uchun shart-sharoitlarning yaratilayotganligi bilan izohlanadi. Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida davlat mablag'lari hisobidan tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirish siyosati izchillik bilan davom ettirildi.

Tijorat banklari banklararo bozorga asosan quydagi holatlarda murojat qiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB) tomonidan o'rnatilgan zahira me'yorini bajarishlari uchun;
- investitsion loyihalar va kredit operatsiyalariga mablag'lar jalb qilishlari uchun;
- joriy likvidligini ushlab turish uchun (shu jumladan, naqd pullarni mustaxkamlash uchun);
- arbitraj o'tkazishlari uchun.

O'zbekiston Banklari Assotsiatsias huzuridagi "Banklararo Maslahat Xizmati" MChJ tomonidan banklararo kreditlar (depozitlar) bo'yicha milliy valyutadagi foiz stavkalarining uchta indeksi UZIBOR, UZIBID va UZIAR joriy etilganligi respublika bank va moliya tizmini rivojlantirishdagi muhim voqealardan biri bo'ldi. Indeksar sakizta har xil muddat- bir kun (overnight), bir hafta, bir oy, ikki oy, olti oy, to'qqiz oy va bir yil muddat bo'yicha hisoblab chiqariladi.

Eslatib o'tamiz, UZIBOR (Uzbekistan Interbank Offered Rate) sotuvchi banknig sumlardagi banklararo kreditlar (depozitlar) bo'yicha banklararo stavkasi bo'lib, 2004 yil may oyida joriy etilgan. 2005 yil boshlarida UZIBID va UZIAR joriy etildi. UZIBID (Uzbekistan Interbank Bid Rate)- foiz stavkasi bo'lib, shu stavka bo'yicha banklar O'zbekiston banklararo bozoridan mablag'larni jalb etishga tayyor bo'ladilar, UZIAR (Uzbekistan Interbank Avaraje Rate)- O'zbekistonning banklararo o'rtacha mediana stavkasi bo'lib, UZIBID bilan UZIBOR o'rtasida turadi. Garchi banklar bo'sh mablag'larini o'zlari ko'rsatgan OFFER (stish kursi) va BID (xarid kuri) stavkalari bo'yicha jalb etish yoki joylashtirishga majbur bo'lmasalar-da, amaldagi stavkalar o'sha kuni indeksarlarni hisoblab chiqarish chog'ida ko'satilgan stavkalardan katta farq qilmasligi kerak. UZIARDan banklararo bozorning barqarorligini aniqlash uchun foydalanish mumkin: OFFER va BID stavkalari o'rtasidagi farq (spread) qancha kam bo'lsa, banklararo bozor shunchalik barqaror bo'ladi va aksincha.

**Banklararo resurs bozorida banklarning foiz stavkalari²², 30.05.2013 yil
holatiga**


Banklarning nomi	Bir kun (overnayt)	1 oy	1 oy	2 oy	3 oy	6 oy	9 oy	12 oy
Asaka bank	7	7.5	8	8.5	9	9	11	11.5
TIF Milliybank	15	15	15	15.5	15.5	15.5	15.5	15.5
Agrobank	n/a	n/a	n/a	n/a	n/a	n/a	n/a	n/a
Xalq banki	n/a	n/a	n/a	n/a	n/a	n/a	n/a	n/a
Kapitalbank	7	8	9	9	10	10	11	12
Ravnaq bank	7	7.5	8	9	9.5	10	11	12
Ipak yo'li bank	7	8	8.5	9	9	10	11	12
Qishloqqurilishbank	7	7	8	8	9	10	11	12
Ipotekabank	8	8.5	9	9.5	10	10.5	11	12
Trast bank	6	7	9	9	9.5	10	11	12
O'zSQB	6	7.5	8.5	9	10	11	12	12.5
UTbank	n/a	n/a	n/a	n/a	n/a	n/a	n/a	n/a
Turonbank	7	7.5	7.5	8	9.5	10	11	12
UZIBOR	7	7.62	8.5	9	9.62	10	11	12

Jadval ma'lumotlaridan shu ko'rinib turibdiki, banklarning foiz stavkalari aksariyati Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan oshib ketmagan. Lekin TIF Milliy bankining foiz stavkasi hamma muddatlar bo'yicha ko'tarilishi kuzatilyapti. UZIBOR stavkasi bo'yicha 1 kun va 1 haftalik muddatlar bo'yicha foizlarning pasayishini banklarning bu muddatlar bo'yicha kreditga hohishlari yo'qligi bilan izohlash mumkin va aksincha 6 oydan 12 oygacha bo'lgan muddatdagi resurslar uchun banklar o'rtasida raqobat kuchli va foiz stavkalari

²² www.uzibor.com

ham shunga mos ravishda yuqori. Banklararo kredit va Banklararo bozorni yanada ochiqroq o'rganish maqsadida banklararo kredit tarkibini va ular bank resurslari tarkibida qanchalik ulushga ega ekanligi hamda uni bank likvidliligiga qanchalik ta'sir qilayotganini ko'rib chiqamiz.

Tijorat banklarining resurslarining boshqarishning asosiy mezonlaridan biri jalb qilingan mablag'larning oqilona qymatini shakllantirish hisoblanadi. Tijorat banklariga jalb qilingan mablag'larning bahosi ularning aktiv operatsiyalari bo'yicha o'rnatiladigan foiz darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois ham jalb qilingan mablag'larning bahosini boshqarishda asosiy e'tibor ularni nisbatan arzon manbaalar hisobidan shakllantirishga qaratiladi.



3-rasm. Banklararo resurs bozoridagi o'rtacha foiz stavkalari²³

²³ Markaziy bank ma'lumotlari asosida tuzildi.

Respublikadagi barqaror makroiqtisodiy holat va yuritilayotgan qat'iy pul-kredit siyosati pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari, jumladan tijorat banklarining kreditlari va depozitlari bo'yicha foiz stavkalari dinamikasida o'z aksini topdi.

Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 2011 yilning 1 yanvaridan yillik hisobda 14 foizdan 12 foizgacha tushirildi va yil davomida o'zgartirilmasdan saqlab turildi.

Bu esa, o'z navbatida pul bozorida foiz stavkalarining pasayishiga olib kelib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xarajatlarining kamayishi va buning natijasida ularning investitsion faolligini oshirishga xizmat qildi.

Xususan, 2010 yil davomida pul bozoridagi operatsiyalar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari yillik hisobda 8,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda ushbu ko'rsatkich 8,5 foizga teng bo'ldi.

Xususan, 2012 yilda pul bozoridagi foiz stavkalarini qayta moliyalash stavkasiga yaqinlashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida banklararo pul bozoridagi operatsiyalar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi yil boshidan buyon 0,3 foiz bandga o'sib, dekabr oyida 11,0 foizni tashkil etdi.

Aholi real daromadlarining o'sishi, bank tizimiga bo'lgan ishonchning ortib borishi hamda iqtisodiyotdagi inflyatsion kutilmalarning pasayishi kabi omillar ta'sirida, 2012 yil davomida jismoniy shaxslarning tijorat banklaridagi depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi yil boshidagi 9,6 foizdan dekabr oyining oxirida 6,4 foizgacha, yuridik shaxslarning jamg'arma va muddatli depozitlar bo'yicha stavka esa 6,8 foizdan 6,0 foizgacha pasaydi.

Natijada, 2012 yil davomida tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori sub'ektlariga ajratilayotgan jami kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasini ham yil boshidagi 14,3 foizdan dekabr oyiga kelib 13,6 foizgacha pasayishi kuzatildi.

1-ilova.

**O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining 2013 yil 1 aprel holatiga moliyaviy ko'rsatkichlari to'g'risida
ma'lumot²⁴, (mln.so'm)**

No	Bank nomi	Aktivlari	Xususiy kapital	Banklarga joylashtirilgan	Tashqi qarz	Tashqi manbalarga bog'liqligi
	1.	2.	3.	4.	5.	6. (5/1-3)
1.	Milliy bank	9 876 332	1 011 513	1 957 657	613 905	6,93%
2.	Sanoatqurilish bank	5 010 137	358 867	724 432	68 124	1,46%
3.	Asaka bank	3 851 212	630 159	552 830	423 606	13,15%
4.	Ipoteka bank	2 739 389	205 691	373 228	692 963	27,35%
5.	Agrobank	2 458 967	309 150	145 769	893 585	41,57%
6.	Xalq banki	2 410 682	301 330	625 603	214 538	10,17%
7.	KDB Bank Uzbekistan	1 966 092	136 733	1 032 404	227	0,01%
8.	Qishloq qurilish bank	1 937 585	228 681	212 289	76 737	4,49%
9.	Aziya Alyans bank	878 994	69 392	436 303	35 000	4,32%
10.	Ipak Yo'li bank	868 743	88 533	121 244	61 328	7,86%
11.	Mikrokredit bank	786 164	178 449	7 280	396 972	65,32%
12.	Xamkor bank	749 092	111 509	64 043	50 450	7,91%
13.	Kapital bank	743 893	54 252	141 780	26 482	3,84%
14.	Turon bank	678 545	51 827	86 163	92 785	14,80%
15.	Aloqabank	639 272	109 523	36 674	82 552	15,58%
16.	Trastbank	632 890	77 892	166 428	17 937	3,23%
17.	Savdogar bank	295 153	50 207	23 582	70 852	28,93%
18.	Invest Finans Bank	257 589	36 521	53 216	21 319	9,64%
19.	Orient-finans bank	209 993	24 016	42 787	0	0,00%
20.	UT bank	128 594	45 590	54 566	9	0,01%
21.	Turkiston bank	104 270	18 559	30 401	150	0,18%
22.	Samarqand bank	77 611	30 367	25	4 394	9,30%
23.	Kredit standart bank	68 416	47 869	27 484	0	0,00%

²⁴ Tijorat banklarining hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi.

Ilova ma'lumotlarini ko'radigan bo'lsak, mamlaktimiz tijorat banklarining bir-birlariga joylashtirgan resurslari turlicha. 2013 yilda banklar tomonidan banklarar resurs bozoridagi faollik ancha oshganligini ko'rish mumkin. Ushbu bozordagi faol ishtirok etayogan banklarga Milliy bank, KDB Bank Uzbekistan, Sanoatqurilish bank, Xalq banki, Asaka bank va boshqa banklarni kiritish mumkin. Shu bilan birga ushbu bozordagi ishtiroki juda ham past bo'lgan banklar ham mavjud. Masalan, Samarqand bank, Mikrocredit bank, Savdogar bank, Turkiston bank, Invest Finans Bank, Orient-finans bank, UT banklarni kiritish mumkin. Ushbu holatga ikki tomonlama izoh berish mumkin. Birinchidan, banklararo resurs bozorida banklarning faol ishtirok etayotganligi o'z likvidligin ta'minlash hamda moyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirsa, ikkinchi tomonlan banklarning tashqi manbalarga qaramligini oshiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining xorijiy banklar bilan iqtisodiy aloqalarinig mustahkamligi ularning resurslari bazasiga bevosita ijobiy ta'sir qiladi. Agar mamlakatning horijiy banklar bilan tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalari samarali tashkil etilgan bo'lsa, uning natijasi tijorat banklarining faoliyatida, xususan, banklarning resurslarini shakillantirishda o'zining samarasini beradi. Rivojlangan va MDHga a'zo malakatlar banklarining resurslari tarkibida xorijiy depozit mablag'lari va olingan kreditlar salmoqli o'rinni egallaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining xorijiy banklar bilan iqtisodiy aloqalarinig mustahkamligi ularning resurslari bazasiga bevosita ijobiy ta'sir qiladi. Agar mamlakatning horijiy banklar bilan tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalari samarali tashkil etilgan bo'lsa, uning natijasi tijorat banklarining faoliyatida, xususan, banklarning resurslarini shakillantirishda o'zining samarasini beradi. Rivojlangan va MDHga a'zo malakatlar banklarining resurslari tarkibida xorijiy depozit mablag'lari va olingan kreditlar salmoqli o'rinni egallaydi.

3-bob. O'zbekiston Respublikasida banklararo resurs bozorini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish yo'llari.

Bozorni banklararo kreditlar o'rtacha foizlari stavkalari bo'yicha ma'lumotlar bilan ta'minlashning yo'llaridan biri banklararo bozorlar pul mablag'lari milliy ko'rsatkichlarini qabul qilinishi hisoblanadi. Banklararo pul bozori ko'rsatkichlari xalqaro bank amaliyotida keng qo'llaniladi. Ularning ichida eng taniqlisi Buyuk Britaniya banklari uyushmalari tomonidan e'lon qilinadigan LIBOR foiz stavkasidir. Ushbu stavkalar bo'yicha banklar boshqa banklardan pul mablag'larini qarzga oladilar. Shunday stavkalar Frankfurt moliya bozorlari ishtirokchilari (FIBOR), Tokio (TIBOR), Gonkong (XIBOR) va boshqalarda ham mavjud. Bundan tashqari shunga o'xshash stavkalardan Rossiya va Qozog'iston moliya bozorlarida ham foydalaniladi.

Moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- banklararo kreditlar o'rtacha statistik foiz stavkalarini aniqlash bo'yicha marketing tadqiqotlari o'ziga xos umumlashtiruvchi natijalar hisoblanadi;
- pul mablag'larini joylashtirishning uzoq muddatlari bo'yicha fiksing tavsiya etiladi;
- xalqaro andozadagi ko'rsatkich hisoblanadi;
- banklararo pul bozorida keng tarqalgan;
- ularni hisoblash mexanizmi ochiq va hamma uchun tushunarli;
- hisoblar tizmiga kiruvchi banklar yuqori kredit reytingiga ega.

O'zbekistonda pul mablag'lari banklararo bozorida o'rtacha statistik foiz stavkalarini o'rnatish tajribasi mavjud emas. Bundan tashqari, banklarning qarz beruvchi banklar haqida kerakli va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishlari zaruriyati mavjud bo'lib, banklararo shartnomalar xulosalari bo'yicha me'yorlarni unifikatsiya (bir xil) qilish yo'lga qo'yilmagan.

Taklif qilinayotgan ko'rsatkichlar O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi (Uyushmasi) tomonidan hisoblab chiqilishi mumkin va ular kelajakda qisqa

muddatli kreditlar foiz stavkalari ko'rsatkichlari (indekslari) vazifasini o'taydi. Hisoblangan ko'rsatkichlar tijorat banklariga bepul taqdim etiladi. Indeks hisoblari bazasiga (market-meykerlar) kiruvchi banklar, Assotsiatsiya (Uyushma)ni markaziy banklar bilan kelishilgan holda ularni banklararo bozorda mavqei va faollik darajasi asosida tanlanadi. Ushbu banklar Markaziy bank me'yorlariga rioya qilishlari va bozor balansini tuzishlari lozim. Banklar har bir ish kunida Assotsiatsiyaga (Uyushmaga) o'zlarining kotirovkasini taqdim etadilar va Assotsiatsiya (Uyushma) banklarni fiksingini milliy valyuta so'm bo'yicha chop etadi. Bunda banklarni e'lon qilingan stavkalar bo'yicha pul mablag'larini sotishlari yoki sotib olishlari shart emas. O'rtacha statistik foiz stavkalarini hisoblashni unifikatsiya (bir xil) qilish uchun pul mablag'lari banklararo bozori ko'rsatkichlarini shakllantirishni yagona uslubi ishlab chiqilishi zarur. (keyingilarda uslub deyiladi). Bankning banklararo bozor milliy ko'rsatkichlarda ishtirok etishi bevosita uning obro'yiga va moliyaviy holatiga bog'liq bo'ladi. Market-meykerlar dastlab pul mablag'lari banklararo bozori ko'rsatkichlarini shakllantirish haqida Memorandum imzolashlari lozim. (keyingilarda memorandum deyiladi). Memorandumda har bir bankning huquq va majburiyatlari aks ettiriladi. Ular boshqa banklar va market-meykerlar faoliyati manafaatlariga zid bo'lmasligi yoki bunday holatlardan o'zlarini tiyishlari zarur. Memorandum me'yorlarini buzgan ishtirokchilar market-meykerlar ro'yxatidan chiqariladi. Ushbu hujjatlarning mavqeini oshirish uchun ularni dastlab Markaziy bank va tijorat banklari bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Biroq, miliy ko'rsatkichni ishlab chiqilishi banklararo bozor rivojlanishi masalalarini to'liq hal etmaydi. Chunonchi, banklarni pul bozorida banklararo operatsiyalarini tartibga soluvchi me'yoriy asoslari takomilashtirilishi taqozo etiladi. Masalan, hozirgi vaqtda bank hamjamiyatida qisqa muddatli pul mablag'lari banklararo elektron bozori rivojlanishiga ehtiyoj mavjud. Bu esa banklararo pul bozorida banklar faoliyatini tartibga solish shu jumladan elektron savdolar o'tkazish bo'yicha yangi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilishini talab

etadi. Bu pul mablag'leri banklararo bozoridan banklar operatsiyalarini amalga oshirish kodeksi bo'lishi mumkin. Kodeks pul bozori o'rtacha bozor stavkalarini shakllantirish bo'yicha hujjatlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan esa tashkilotchilar banklarni banklararo bozorda ishtirok etishlari va qarz beruvchi bank ma'lumotlarini oshkor etish tartiblari belgilanadi. Har bir bozor ishtirokchisining huquq va majburiyatlari aks etgan savdoni o'tkazish, hisob-kitoblarni va bitimlarni sug'urtalashni amalga oshirish tartiblari o'rnatiladi.

Banklararo bozor rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni 3 guruhga birlashtirish mumkin:

- qarz beruvchi banklar likvidliligi darajasini baholash;
- ma'lumotlarning etarli emasligi;
- tashkiliy-texnikaviy masalalar.

Tartibga solinmagan bozorda amaliy jihatdan kreditni (depozitni) standart muddatlari doirasida o'rtacha bozor foizi stavkalari, hajmlari va joylashtirilgan mablag'lar muddatlari haqida ishonchli ma'lumotlar olish imkoniyati yo'q. Bundan tashqari, tahlil qilish uchun kerak bo'lgan ma'lumotlar etishmasligi qarz beruvchi bankning moliyaviy holatini to'la aniqlashni qiyinlashtiradi. Buning natijasida banklararo bozorni arzon mablag'lariga ehtiyoji bo'lgan kichik banklarni ushbu bozorga erkin kirishlariga imkoniyat yo'q. Undan tashqari bosh kelishuvlar xulosalari vositasida amalga oshiriladigan bitimlar banklararo operatsiyalarni amalga oshirishni tezkorligidan mahrum etadi. Bozor ochiqqligi esa foiz stavkalari shakllanishining bozorga mos bo'lmagan mexanizmlardan foydalanishga majbur etadi. Mavjud xolat bank tizimida kapitalning erkin harakatlanishiga to'sqinlik qilib, bank daromadlarini pasaytiradi va banklar likvililigini boshqarishni qiyinlashtiradi. Bundan xizmat ko'rsatadigan banklarning mablag'larini etishmasligi sababli etarli kredit mablag'leri ololmayotgan xususiy biznes ziyon ko'rmoqda.

Republika banklar kengashi tomonidan o'tgan yilning iyunida va shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 15 dekabridagi 547 sonli qaroriga asosan tasdiqlangan 2003-2004 yillarda bank

tizimida islohotlarni keyingi bosqichi Dasturida banklararo bozor faoliyatini me'yoriy asoslarini takomillashtirish, bozor ko'rsatkichlari tizimini yaratish va banklararo pul bozorlarida elektron savdolarini tashkil etish zarurligi ta'kidlangan.

Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun tashkiliy, huquqiy va texnikaviy xususiyatlarga ega bo'lgan bir qancha masalalarni hal qilinishi zarur, jumladan:

- Banklararo bozor o'rtacha foiz stavkalarini o'rnatish mexanizmini tashkil etish;
- Banklararo bozorni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar to'plamini ishlab chiqish;
- Bozor ishtirokchilariga birja savdolarida ishtirok etishlari va texnikaviy shar-sharoitlarni yaratish uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqish;
- Qarz mablag'larini qaytarish xatarini kamaytirishni real baholaydigan banklar ma'lumotlari bilan ta'minlashni to'laqonli tizimini yaratish.

Banklararo operatsiyalarni amalga oshirilishi vaqtida o'rnatilgan foiz stavkalari aksariyat jihatdan kelishilgan yoki kelishilmagan bitimlar hajmi va muddatlariga bog'liq bo'ladi. Bu yerda Markaziy bankning o'rni katta bo'lib, zaruriyat tug'ilganda banklararo bozorda kredit mablag'larini jalb qilish yoki joylashtirish orqali pul bozori foiz stavkalarini tartibga solishga erishiladi.

Banklarga imkoniyatli qarz beruvchi bank to'lov qobiliyati darajasini tahlil etishlari uchun quyidagi ma'lumotlar zarur bo'ladi:

- jalb qilingan va joylashtirilgan mablag'lar hajmi va muddatlari;
- qarz berish qobiliyati reytingi;
- moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni joriy holati o'zgarishlari dinamikasi.

Banklararo bozorda elektron savdolar tizimini tashkil etuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan birja yoki tashkilot xizmat vazifasi nuqtai nazaridan jalb qilingan yoki joylashtirilgan pul mablag'lari hajmi va muddatlari haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashlari lozim. Boshqalarni qarz berish qobiliyati reytingi ixtisoslashgan reyting kompaniyalari tomonidan hisoblanadi.

Shuningdek, banklarning o'zi pul mablag'lari qaytmasligi xatarini o'zlarining sheriklarini moliviy faoliyatini tahlil qilishlari asosida baholashlari mumkin. Buning uchun esa ular o'zlarining mavjud sheriklari faoliyati haqida ishonchli va to'laqonli ma'lumotlarga ega bo'lishlari zarur. Rossiyada ushbu masala moliyaviy ma'lumotlar ayirboshlash bo'yicha tuzilgan banlararo analitik markazlar tashkil etish yo'li bilan hal qilingan. Masalan, Rossiyada internet-portal Banklist.ru ([http://www. Banklist.ru](http://www.Banklist.ru)) faoliyat yuritadi va u Rossiya tijorat banklari uchun yagona ma'lumot-analitik markazni tashkil etishga yo'naltirilgan. Loyihani vazifasi – tijorat banklariga bir-birlari to'g'risida turli va ishonchli moliviy ma'lumotlar taqdim etish va ularni samarali tahlilini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu chora-tadbirlar Rossiya banklarining fond bozorida o'zaro ishonchini oshirishga qaratilgan. Rossiya banklar Assotsiatsiyasi (uyushmasi) tashabbusi va Rossiya markaziy banki ko'magida portal ochilgan.

Xorijiy tajribalar ko'rsatishicha foiz stavkalari darajalarini yanada aniq bashorat qilishda quyidagi omillar haqida ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- Markaziy bank korrespondentlik hisoblarida depozitlar ko'rinishida kunlik qoldiqlar;
- REPO operatsiyalari natijalari;
- Markaziy bank korrespondentlik hisoblarida depozitlar ko'rinishidagi mablag'lar hajmi;
- Markaziy bankning pul bozoridagi foiz stavkasi;
- markaziy bankning boshqa banklar bilan pul mablag'larini jalb qilish va joylashtirish qoldig'i (saldo);
- shartnomalar bajarilishi muddatlari.

Masalan, Rossiya Markaziy banki o'zining byudjeti bo'yicha o'rnini bir hafta oldin ushbu ma'lumotlarni har kuni tahlil qilish asosida amalga oshirayotgan operatsiyalari natijalari bo'yicha chop etishni rejalashtirmoqda. Bu esa, banklararo kreditlar stavkalarining tebranishini kamaytirib yaqin davrdagi holatni nisbatan aniq bashorat qilishga imkoniyat yaratadi.

Bizning fikrimizcha, ushbu barcha yangiliklar milliy bozor xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich qabul qilinishi kerak. Bunda qarz beruvchi bank moliyaviy holati tahlili zamonaviy usullarini ishlab chiqarishga banklararo ma'lum rivojlanish tendentsiyasini aniqlashga va bank mutaxassislari analitiklari malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim.

Jahon banki amaliyotida tijorat banklariga mablag'larni jalb qilishning keng tarqalgan nodepozit shakllari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- banklararo bozordan qarz olish;
- qimmatli qog'ozlarni qaytib sotib olish sharti bilan sotish ("Repo" operatsiyasi);
- bank aktseptlarini sotish;
- tijorat qog'ozlarini chiqarish;
- evro-dollarlar bozoridan qarz olish;
- kapital notalar va obligatsiyalar chiqarish va boshqalar.

Odatda tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda resurslarning nodepozit manbalaridan ham foydalanishga katta e'tibor beriladi. Ular bozorda raqobatchilik asosida vositachilik (brokerlar) orqali sotib olinadi. Bu yerda, birinchidan, mablag'larni soib olish bankning o'ziga tegishli, ikkinchidan, bu g'oya bankning biror-bir mijosi bilan bog'liq emas. Nodepozit manbalardan asosan moliyaviy markazlarda joylashgan hamda moliya bozori mexanizmidan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lgan yirik banklar keng foydalanadilar. Nodepozit mablag'lar yirik miqdorda sotib olinadi.

Tijorat banklarining resurslarga bo'lgan ehtiyoji depozit operatsiyalari natijasida to'liq qondirilmaganda ular mamlakat yoki xalqaro moliya bozoriga, Markaziy bankka va banklararo pul resurslari bozoriga murojaat qiladi.

Xalqaro bank amaliyotida moliya bozori va banklararo pul resurslari bozorlari orqali banklarning katta miqdorda moliyaviy resurslarni jalb etishi amaliyotda o'zining ijobiy natijasini topgan. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining resurslari tarkibida qimmatli qog'ozlarning ulushi 20-25 foizni

tashkil etgan. Rossiya Federatsiyasi tijorat banklarida ushbu ko'rsatkich 2010-2011 yillarda 10-12 foizni tashkil etgan²⁵, O'zbekiston tijorat banklarida shu davrda 0.7-1.0 foizdan iborat bo'lgan²⁶.

Bank resurslarini qimmatli qog'ozlar hisobidan shakllantirishning asosiy mezonini mamlakatda pul bozorining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Mazkur masala O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov alohida e'tibor qaratib, shunday deb ta'kidladi: "Takror va takror aytishga to'g'ri keladi, qachonki, qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori to'la ishga tushsa, fond birjasi tomonidan ma'noda faoliyat ko'rsatsa, qachonki, aktsiyalar qiymati muntazam e'lon qilib borilsa, alohida aktsiyalarni sotib olishga ishtiyoq va intilish tug'ilsa, aktsiyalarning o'zi shunchaki oddiy qog'oz bo'lib qolmasdan, haqiqiy qimmatli qog'ozga aylanib, o'z egalari uchun muhim daromad manbai bo'lsagina bunga erishish mumkin"²⁷

Tijorat banklari resurslarini boshqarishda mamlakatda bozor mexanizmlari hisoblangan raqobat, talab va taklif, erkin baho va tanlov kabi mexanizmlarni amal qilish darajasi juda muhim hisoblanadi. Masalaning jiddiyligi shundaki, tijorat banklari resurslarini boshqarish iqtisodiyotda bozor mexanizmlari to'liq joriy etilgandagina o'zining iqtisodiy samarasini beradi. Biroq erkin iqtisodiy muhitda bozor mexanizmlari ishlamasa, banklarning resurs bazasini shakllantirish va boshqarishda turli muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshidan kechirayotgan hozirgi kunda bank amaliyotida shu kabi holatlarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, barcha tijorat banklari ham markaziy bankning nisbatan arzon resurslaridan erkin foydalanish xuquqiga ega emasligi tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldi. Shuning uchun mamlakatda bozor mexanizmlarining to'liq ishlashini ta'minlashga erishish lozim. Mamlakatda moliya va kreditlararo bozorining samarali faoliyatini tashkil etish zarur. Iqtisodiyotda pul

²⁵ Шпрингиль В. Роль рынка ценных бумаг в жизни российских банков или несколько слов о банковской отчетности. //Рынок ценных бумаг. №19(271), 2004.С.44-45.

²⁶ O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining hisobotlari asosida hisoblandi.

²⁷ "Xalq so'zi" gazetasi.2004 yil 10 fevral

mablag'larining erkin ravishda suzib yurishida moliya va kreditlararo resurslar bozorining bo'lishi mug'im ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda moliya va kreditlararo bozorining samarali ishlashi mavjud bo'sh pul mablag'larini tijorat banklariga jalb qilish orqali iqtisodiyotning samarali sog'alariga jalb qilish imkonini beradi.

Banklararo operatsiyalarni amalga oshirilishi vaqtida o'rnatilgan foiz stavkalari aksariyat jihatdan kelishilgan yoki kelishilmagan bitimlar hajmi va muddatlariga bog'liq bo'ladi. Bu yerda Markaziy bankning o'rni katta bo'lib, zaruriyat tug'ilganda banklararo bozorda kredit mablag'larini jalb qilish yoki joylashtirish orqali pul bozori foiz stavkalrini tartibga solishga erishiladi.

Banklarga imkoniyatli qarz beruvchi bank to'lov qobilyati darajasini tahlil etishlari uchun quyidag ma'lumotlar zarur bo'ladi:

- jalb qilingan va joylashtirilgan mablag'lar hajmi va muddatlari ;
- qarz berish qobilyati reytingi;
- moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni joriy holati o'zgarishlari dinamikasi.

Tijorat banklarining banklararo pul resurslari bozorining bir maromda ishlashida, uning ishochililigi, tezkorligi va iqtisodiy jihatdan barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Mustaqil davlatlar hamdo'stligia a'zo mamlakatlarda banklararo pul resurslari bozori 1990 yillarning o'rtalridan boshlab shakllana boshladi.

O'zbekistonda banklararo pul resurslari bozoridagi operatsiyalar Markaziy bank tomonidan 1996 yil 20 aprelda tasdiqlangan 41sonli "O'zbekiston Respublikasida kredit resurslarini auktsionini o'tkazish tartibi" ga asosan amalga oshiriladi. Unga ko'ra O'zbekiston respublikasi valyuta birjasi bazasida Birja axborotlar diling tizimi orqali qisqa muddatlarda amalga oshiriladi.

Banklararo bozorda elektron sovdolar tizimini tashkil etuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan birja yoki tashkilot xizmat vazifasi nuqtai nazarida jalb qilingan yoki joylashtirilgan pul mablag'lari hajmi va muddatlari haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashlari lozim. Boshqalarni qarz berish qobilyati

reytingi ixtisoslashgan reyting kompaniyalari tomonidan hisoblanadi. Shuningdek, banklarning o'z pul mablag'lari qaytmasligi xatarini o'zlarining sheriklarini moliyaviy faoliyatini tahlil qilishlari asosida baholashlari mumkin. Buning uchun esa ular o'zlarining mavjud sheriklar faoliyati haqida ishonchli va to'la qonli ma'lumolariga ega bo'lishlari zarur.

Rossiyada ushbu masala moliyaviy ma'lumotlar ayriboshlash bo'yicha tuzilgan banklararo analitik markazlar tashkil etish yo'li bilan hal qilingan. Masalan, Rossiyada internet-portal Banklist.ru (<http://www.Banklist.ru>) faoliyat yuritadi va u Rossiya tijorat banklari uchun yagona ma'lumot- analitik markazni tashkil etishga yo'naltirilgan. Loyihani vazifasi- tijorat banklariga bir-birlari to'g'risida turli va ishonchli moliyaviy ma'lumotlar taqdim etish va ularni samarali tahlilini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu chara-tadbirlar Rossiya banklarining fond bozorida o'zoro ishonchini oshishiga qaratilgan. Rossiya banklar Assotsiatsiyasi (uyushmasi) tashabbusi va Rossiya Markaziy banki ko'magida portal ochilgan.

Xorijiy tajribalar ko'rsatishicha foiz stavkalari darajalarini yanada aniq bashorat qilishda quydagi omillar haqida ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- Markaziy bank korrespondentlik hisoblarida depozitlar ko'rinishida kunlik qoldiqlar;

- REPO operatsiyalari natijalari;

- Markaziy bank korrespondentlik hisoblarida depozitlar ko'rinishidagi mablag'lar hajmi;

- Markaziy bankning boshqa banklar bilan pul mablag'larini jalb qilish va joylashtirish qoldig'i (sal'do);

- shartnomalar bajariltishi muddatlari.

Masalan, Rossiya Markaziy banki o'zining byudjeti bo'yicha o'rnini bir hafta oldin ushbu ma'lumotlarni har kuni tahlil qilish asosida amalga oshirayotgan operatsiyalari natijalari bo'yicha chop etishni rejalashtirmoqda. Bu esa, banklararo kreditlar stavkalarining tebranishini kamytirib yaqin davradagi holatni nisbatan aniq bashorat qilishga imkoniyat yaratadi.

E'tiborli jihat shundaki, MDH ga a'zo mamlakatlar banklarining kapitali rivojlangan banklar kapitalining miqdoriga nisbatan ancha yuqori. Bizning nazarimizda, MDH ga a'zo mamlakatlar, shu jumladan, respublikamiz banklari kapitalining darajasini yuqori salmoqqa ega ekanligini ularning kapitalini tarkibida xorijiy valyutada kiritilgan mablag'larning devalvatsiyasi izoxlash mumkin.

Qozog'iston, Rossiya va Ukraina banklari moliyaviy resurslari tarkibida xalqaro banklarning kreditlari va VOSTRO hisobraqamlaridag vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari salmoqli ulush egallagan. Ta'kidlash lozimki, tijorat banklari ushbu mablag'lar barqaror moliyaviy resurslarni shakillantirish manbasi sifatida xizmat qilmoqda. Respublikamiz tijorat banklarida esa aynan mana shu manbani shakillantirish masalasi muammo sifatida qolmoqda. Chunki tijorat banklari xorij banklaridan to'g'ridan-to'g'ri kreditlarni jalb qilish borasida ijobiy natijaga erishmayapti, shu bilan birga xorijiy banklar respublikamizning tijorat banklarida o'zlarining VOSTRO vakillik hisobvaraqlarini ochishmagan.

Tijorat banklari banklararo kredit bozorida quydagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratishi lozim: *kredit oluvchiniing moliyaviy holatini baholash; kredit ob'ektini baholash; kreditning ta'minlangan-ligini baholash.*

Kredit oluvchi bankning moliyaviy holatini baholashda:

a) bankning moliya bozoridagi iqtisodiy holati, uning barqarorlik darajasi va Markaziy bank va davlat boshqaruv organlari bilan o'zaro munosabatiga ahamiyat qaratiladi;

b) bank balansining passiv va aktiv qisimidagi mablag'larning muddati va iqtisodiy jihatdan sifat darajasi tahlil qilinishi zarur.

Kreditor kredit oluvchi bank olayotgan kreditning obektini etarli darajada aniq baholashi berilgan kreditdan foydalanish samaradorligini aniqlash imkonini berish bilan birga, ushbu kreditni o'z vaqtida to'liq va ma'lum friz to'lovvri bilan birga qaytarish ehtimolini aniqlash imkoniyatini beradi.

Kreditor bank banklararo kreditni berishda kerditning belgilangan muddatda qaytishi, uning to'loviligi va maqsadliligiga asosiy e'tibor qaratishi lozim. Bu holatda kreditning ta'minlanganligini etarlicha baholash zarur bo'ladi. Kredit oluvchi bankning ushbu holati uning likvidlik darajasi va aktivlar darajasi tarkibining sifati darajasi asosida baholanadi.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga uzoq muddatli subordinar kreditlarni berishni yo'lga qo'yish lozim. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari kapitalini oshirish maqsadida berilgan subordinar kreditlar quydagi ijobiy natijalarni beradi va banklararo pul resurslar bozorini rivojlantirishda katta hissa qo'shadi:

- respublikamizda monetizatsiya koefitsientining oshishiga olib keladi. Ma'lumki, respublikamiz iqtisodiyotida monetizatsiya koefitsienti nisbatan past darajada qolmoqda;

- tijorat banklarida nisbatan arzon manbalar hisobidan kapitallashuv darajasini oshirish imkoniyati tug'ildi. Bu esa, o'z navbatida, ulning real sektorni kreditlashga yo'naltirayotgan mablag'lari hajmining ortishiga olib keladi;

- Markaziy bank iqtisodiyotdagi pul va tovar massasi o'rtasida muvozanatlikni ta'minlashi bilan birga, yuqori miqdorda bo'lmasda qo'shimcha daromad mabaiga ega bo'ladi.

Erishilgan natijalarni va banklararo bozor indekslarining istiqbolini hisobga olib, indekslarni yanyada rivojlantirish va takomillashtirishning bir necha ustuvor yo'nalishlarini aniqlash zarur.

Birinchi, UZIBOR, UZIBID va UZIAR indikatorlarining sifati va aniqligini oshirish maqsadida O'zbekiston banklararo bozori indekslarini shakllantirishda qatnashadigan banklar sonini 16 taga etkazish zarur. Hozirgi vaqtda indekslarni belgilash guruhiga kirish xususida banklar bilan muzokaralar olib borish kerak.

Ikkinchi, UZIBOR va UZIBID indekslaridan depozitlar va kreditlar bo'yicha amaldagi bozor stavkalariga mo'ljallangan o'zgaruvchan foizstavkalari

darajasini aniqlash uchun foydalanish mumkin. Shu tariqa, omanatchilar va qarzga mablag' oluvchilar bozor stavkalariga mos foizlarni oladilar va to'laydilar. Bundan tashqari, UZIBOR va UZIBID indekatorlari asosidagi o'zgaruvchan foizlarni qo'llanish va mablag'larni qat'iy belgilangan foizlar bo'yicha turli muddatlarga jalb etish chog'ida mavjud bo'ladigan foiz xatarini bartaraf etish imkonini beradi. Ko'pgina chet el banklari mablag'larni jalb etish va investitsiyalash uchun turlicha indekslardan muvofaqiyatli foydalanmoqdalar va shu tariqa, banklar depozitlar va qarzlar bo'yicha stavkalar o'rtasidagi spreadni qayd etmoqdalar. Osiyo taraqqiyot banki kredit liniyasida UZIBOR indeksidan foydalanayotgan birinchi moliya muassasasi bo'ldi. OTB O'zbekiston Moliya Vazirligiga kredit uyushmalarini rivojlantirish uchun xorijiy valyutada olti oylik LIBOR plyus marja o'zgaruvchan foiz stavkasi bo'yicha kredit liniyasini ajratdi; Moliya avzirligi mablag'larni konvertatsiyalab, ularni milliy valyutada mahalliy banklarga olti oylik UZIBOR plyus marja stavkasi bo'yicha berdi.

Uchunchi, banklararl kreditlarning amldagi hajimlaridan va stavkalaridan foydalanib, yangi o'rtacha olingan indekslarni – Uzbekistan Interbank Actual Offered Rate va Uzbekistan Interbank Actual Bid Rate ishlab chiqish kerak. Bu esa banklararo indekslarni real stavkalar asosida e'lon qilish imkonini beradi.

To'rtinchi, mahalliy banklar ko'pincha xorijiy valyutadagi, aynan AQSh dollaridagi bo'sh turgan mablag'larni jalb etish yoki joylashtirishga ehtiyoj sezayotganligini hisobga olib, AQSh dollarida ham banklararo bozor indekslarini ishlab chiqish tafsiya etiladi. Hozirgi vaqtda Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yiya bank operatsiyalarining ko'pchiligi AQSh dollarida amalga oshirilmoqda. AQSh dollaridagi mablag'lar odatda O'zbekistonning banklararo bozoridan xalqaro bank operatsiyalarini- akkreditiv va kafolatlarni amalga oshirish uchun bir yil muddatga jalb etiladi. AQSh dollarida indekslar joriy etilishi bilan O'zbekistonning bank sektori yanada tiniqlashadi. Bundan tashqari, AQSh dollridagi indekslarni Buyuk Britaniyaning (LIBOR), rossiyaning (MIBOR), Germaniyaning (FIBOR) va boshqa mamlakatlarning shunga

o'xshash indeksleri bilan taqqoslash mumkin bo'ladi. Investorlar turli bozorlarga xorijiy valyutada investitsiyalar kiritish samaradorligini qiyoslash imkoniga ega bo'ladilar.

Beshinchi, UZIBOR, UZIBID va UZIAR indekslaridan pul resurslari bozorida tamoyillarni, monetar siyosatning banklararo resurslar bozoriga ta'sirini aniqlash va O'zbekistonning bank sektorini baholash uchun ham foydalanish mumkin.

Shunday qilib, banklararo bozor indekslarini hisoblab chiqarish tizimi joriy etilgandan so'ng bank sektori yanada tiniqlashdi va u banklararo investitsiyalar va ssudalar samaradorligining oshishiga yordam bermoqda.

UZIBOR, UZIBID, va UZIAR indekslarini shakllantirishda qatnashuvchi banklar sonini ko'paytirish, ushbu indekslarni bank depozitlari va ssudalari bo'yicha foiz stavkalari darajasini aniqlash uchun qo'llanish, shuningdek, xorijiy valyutada shunga o'xshash indekslarni ishlab chiqish O'zbekiston bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirishga yordam beradi.

Banklararo kredit bozoarida ishtirokchilarning ko'pligi banklarga tez-tez bitim tuzishga yordam beradi (opertiv bitim) chunki bitmlarning tezroq tuzilishi bankning likvidlilik holatini oshishi yoki bo'sh pul resurslarini ishlatib foyda olib kelishga imkoniyat bo'ladi.

Banklararo kreditlarni rivojlantirishda banklararo pul resurslari bozorini mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimini soddalashtirish va yana va yana soddalashtirish kerakki, toki banklar bu bozorga qiziqish bilan va qiyinchiliklarsiz kirib kelishini ta'minlash kerak. Bu bozorni yana bir tarafi banklarga xizmat ko'rsatish haqlarini imkon darajasida kamaytirish va iloji bo'lsa olib tashlash kerak.

Banklararo kreditni rivojlantirish uchun banklar kelishgan holda hodimlarini xorij tajribasi asosida o'qitib ulardan yahshi va yangi tajribalarini olishlari kerak bo'ladi hamda shu bilan birgalikda O'zbekistondagi banklararo kredit bozorida faqat yirik bosh banklarini emas balki viloyat banklarini ham bu bozorga jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Pul bozorlarining rivojlanishi, tijorat banklarning investitsiyalarini iqtisodiyotning real tarmoqlariga samarali joylashtirishga va bank tizimida akkumulyatsiya qilingan mablag'larni samarali taqsimlashga yordam beradi. Banklararo kredit bozorining amal qilishi, tijorat banklarining kredit resurslarini tez jalb qilishi va investitsiya samaradorligiga, uning hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatib sog'lom investitsion muhitni yaratadi hamda iqtisodiy o'sishga erishiladi.

Zamonaviy bank tizimida banklararo resurs bozori tashkil qilinishi, banklar uchun zarur bo'lgan resurslarni olishga tez imkon berib, tijorat banklarining aktiv operatsiyalari hajmini oshirish va banklar tomonidan qo'shimcha likvid zaxiralar yaratish va saqlashni kamaytiradi hamda uning aktiv operatsiyalarining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Banklararo bozor faoliyati mexanizmining iqtisodiyotda to'g'ri tashkil qilinishi banklarning likvidligini ta'minlash va moliya tizimida yuzaga keladigan tebranishlarni yumshatishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishish bilan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, bank sohasidagi qator islohatlarni amalga oshirishdan boshladi. Zamonaviy bank tizimining muhim elementlaridan biri bu banklararo pul bozorlari bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyotda pul bozorlarining amal qilishi, bank tizimini rivojlantirishga muhit yaratibgina qolmasdan, balki Markaziy bankning samarali monetar siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida tijorat banklarining depozitsiz manbalari tarkibida markaziy bankdan olingan kreditlar hajmining pasayishi, qimmatli qog'ozlar hisobidan shakllantirilayotgan mablag'lar hajmining keskin darajada pastligi va banklararo kreditlarning salmog'ini pasayishi tendentsiyasiga ega ekanligi kabilar salbiy holat sifatida baholanadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari resurslari tarkibida Markaziy bankdan olinadigan kreditlarning hajmi yuqori salmoqni tashkil etadi. Markaziy bank tijorat banklariga kredit berishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad:

- birinchidan, Markaziy bank qayta moliyalash instrumenti orqali iqtisodiyotda pul-kredit siyosatini amalga oshiradi;
- ikkinchidan, tijorat banklarini arzon moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi.

Ta'kidlash lozimki, Markaziy bankning qayta moliyalash instrumenti mamlakatda pul-kredit siyosatining samarali vositasi sifatida foydalanilmayapti. Vaholanki, xalqaro bank amaliyotida mamlakatda amalga oshirilayotgan pul-kredit instrumentlari ichida ushbu vositadan faol ravishda foydalanadi.

Tijorat banklarining resurslari tarkibida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi asosida berilayotgan mablag'lari arzon moliyaviy manba bo'lib, tijorat banklari ushbu resurslarni mumkin qadar ko'proq jalb etishga manfaatdor bo'lishadi. Chunki tijorat banklari tomonidan aktiv operatsiyalarga joylashtirilgan ushbu mablag'larning foydalilik darajasi yuqori bo'lishi bilan birga banklar uchun nisbatan moliyaviy barqaror manba hisoblanadi.

Inflyatsiyaning maqsadli parametridan kelib chiqqan holda, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida 2011 yilning 1 yanvaridan qayta moliyalash stavkasi amaldagi 14 foizdan 12 foizga tushirildi. Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 2 foiz punktiga tushirilishi tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining pasayishiga olib kelib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xarajatlarining kamayishiga, ularning investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Banklar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi va kreditlar ko'lamining kengayishi banklararo pul bozorida ham foiz stavkalarining pasayishiga olib keldi. Xususan, 2011 yil davomida banklararo pul bozoridagi operatsiyalar

bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari yillik hisobda 8,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda ushbu ko'rsatkich 11,0 foizga teng bo'ldi²⁸.

Qayta moliyalash stavkasi iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning o'zgarishi bozor ishtirokchilari uchun o'ziga xos signaldir. Qayta moliyalash stavkasining pasayishi bozorning boshqa stavkalariga, shu jumladan banklararo bozor stavkalariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy bank moliya bozorida operatsiyalari orqali foiz stavkalarining shakllanishiga tezkor ta'sir ko'rsata oladi. Moliya bozorlaridagi operatsiyalarni amalga oshirish orqali tijorat banklari likvid aktivlarni boshqarishga erishadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosati orqali berilayotgan kreditlar hajmini muvofiqlashtirish maqsadida foiz stavkalarining umumiy darajasiga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi. Foiz stavkasining o'zgarishi kreditlar berishni rag'batlantirishga yoki aksincha uning darajasini barqaror ushlab turishga imkon beradi.

Tijorat banklari o'z xususiyatiga muvofiq kredit siyosatining umumiy printsiplari (jahon amaliyotida kredit siyosati to'g'risida memorandum)ni ishlab chiqadi, uning bosh maqsadini, kreditlashning asosiy yo'nalishlarini shakllantiradi. Kredit operatsiyalari risk bilan bog'liq bo'lib, bu hol bankning sifatli kredit portfelini shakllantirishni taqozo etadi. Risk darajasi kredit resurslari qiymati va bankning ma'muriy xarajatlari miqdorini hisobga olganda ssudalar bo'yicha daromaddorlikning odatdagi me'yoriga muvofiq bo'lishi lozim. Kredit siyosatini belgilashda kredit strategiyasini mijozlar tarkibini ham, ularga beriladigan ssudalar (ko'rsatiladigan xizmatlar) doirasini ham diversifikatsiyalashga yo'naltirish lozim bo'lib, bu raqobat sharoitida ayniqsa zarurdir.

Kreditlash amaliyotini takomillashtirish kreditlashni bank uchun optimal tarzda tashkil etishini talab qiladi. Shu maqsadda o'z apparatida malakali va mahoratli bank xodimlariga ega bo'lgan banklar qarz oluvchilarning kredit qobiliyatini hisoblash metodikalari, kreditlash qoidalarining optimal

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobot ma'lumotlari.

variantlarini topishga alohida e'tibor beradi. Kreditlash shunday tashkil etilishi lozimki, u ssudalar shak-shubhasiz qaytarilishini, ulardan maqsadli foydalanilishini, mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi rag'batlantirilishini, o'ta samarali tarmoqlardagi investitsiya loyihalariga yo'naltiriladigan kredit qo'yilmalari ulushi ko'payishini ta'minlasin. Umumiy mo'ljallar va tavsiyalar muayyan kredit loyihalarini tanlash va kredit shartnomalari shartlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi xodimlar tashabbuskorligiga imkoniyat yaratishi lozim. Bankning kredit siyosati shuningdek davlatning iqtisodiy va pul-kredit siyosati qoidalariga, mazkur mintaqada yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatga muvofiq ishlab chiqiladi.

Banklararo kredit iqtisodiyotda o'ziga xos rol o'ynaydi: u nafaqat ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi, balki uni jadallashtiradi. Kredit muomala xarajatlari kamayishiga imkoniyat yaratadi. Bunga pul belgilarini tayyorlash, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash xarajatlarini kamaytirish hisobiga erishiladi, chunki naqd pullarning bir qismiga hojat yo'qoladi; shuningdek pul mablag'lari aylanishi tezlashadi, bo'sh turgan pul mablag'laridan ko'p karra foydalaniladi, zaxira fondlar qisqaradi.

Banklararo kreditlar iqtisodiy tsiklning turli bosqichlarida har xil rol o'ynaydi. Iqtisodiy yuksalish va barqarorlik sharoitida kredit o'sish omili sifatida amal qiladi. Kredit ulkan pul va tovar massalarini qayta taqsimlab, banklarni qo'shimcha resurslar bilan ta'minlaydi. Biroq uning salbiy ta'siri tovarlarni qayta ishlab chiqarish sharoitida namoyon bo'lishi mumkin. Mazkur ta'sir inflyatsiya sharoitida ayniqsa kuchayadi. Kredit orqali muomalaga kirayotgan yangi to'lov vositalari shusiz ham ortiqcha pul massasini ko'paytiradi.

Kredit umumiy pul muomalasi hajmini tartibga solish, pul mablag'larini qaytarishlik shartlarida qayta taqsimlash, vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni jamlash kabi muayyan vazifalarni bajaradi.

Bank banklararo kreditlarni jalb qilib, o'z moliyaviy ahvolini yaxshilash va bank bozorida o'z mavqeini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday

qilib, banklararo kreditlar kreditor bankka ham, qarz oluvchiga ham naf ko'rish imkoniyatini yaratib, banklarni rag'batlantiradi. Banklararo kredit summasi ancha katta bo'lgani bois, kreditor bunday kreditni berib, eng katta haq summasini oladi.

Banklararo resurs bozorini tijorat banklari bir-biriga joylashtiradigan yoki bir-biridan kreditlar yoki depozitlar tarzida jalb qiladigan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (uning hududiy muassasalari) tijorat banklari va ularning filiallariga kreditlar tarzida beradigan va Markaziy bank tijorat banklaridan depozitlar tarzida jalb qiladigan pul resurslari deb tavsiflash mumkin.

Quyidagilar banklararo resurs bozorining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- bankning joriy likvidligini operativ quvvatlash;
- daromaddor aktiv operatsiyalar (avvalo kredit qo'yilmalari) hajmini ko'paytirish uchun qo'shimcha resurslarni shakllantirish;
- daromad olish va o'zining ortiqcha likvidligini tartibga solish maqsadida vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini joylashtirish. Ortiqcha likvidlik deganda "bank balansida o'ta likvid, lekin daromad keltirmaydigan aktivlar ulushining kattaligi" tushuniladi³⁰. Avvalo, bunday aktivlar qatoriga kredit tashkilotlarining korrespondentlik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar kiradi.

Banklararo kreditlash bank kredit xizmatlarining boshqa turlaridan o'z tezkorligi va universalligi bilan ajralib turadi. Banklararo bozorda doimiy ish olib boruvchi banklar, odatda, bir-biri bilan hamkorlik to'g'risida bitimlar tuzadi.

Qimmatli qog'ozlar – aktsiyalar, veksellar, davlat qarz majburiyatlari banklararo kreditlar bo'yicha ta'minlov sifatida amal qiladi.

Banklararo resurs bozori va uni rivojlantirish yo'llari mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishini yozish natijasida quyidagi takliflarni keltirib o'tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

³⁰ Банковское дело: Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 223-б

- banklararo kreditni rivojlantirish maqsadida banklararo pul resurslari bozorini tartibga solish va uni ishlash mexanizmini soddalashtirish va arzonlashtirish (iloji bo'lsa bu tizimni vaqtincha bepul ishlaydigan qilish kerak) lozim. Buning natijasida banklar bozorga qiziqishi ortadi va bozordan iloji boricha pul resurslarini arzon foiz stavkalarda va barqaror muddatlarda olishi mumkin. Buning natijasida banklarda tanlash imkoniyati tug'iladi.

- banklararo resurslari bozoridagi foiz stavkalarini chet el foiz stavkalariga yaqinlashtirish lozim. Stavkalarining bir hillashtirilishi chet el banklaridan kreditlar olish imkoni bo'ladi. Bu hozirgi O'zbekiston sharoitida konvertatsiya muammolarini echishga qisman xizmat qiladi.

- Mahalliy banklar xorijiy valyutadagi, aynan AQSh dollaridagi bo'sh turgan mablag'larni jalb etish yoki joylashtirishga ehtiyoj sezayotganligini hisobga olib, AQSh dollarida banklararo bozor indekslarini ishlab chiqish lozim.

- Tijorat banklarining halqaro reyting darajasini ko'tarib, halqaro bank kreditlarini jalb etish va mahalliy banklarda xorijiy banklarning VOSTRO vakillik hisobvaraqlarini ochish orqali qo'shimcha moliyaviy resurslarning miqdorini oshirish lozim.

- Real iqtisodiyotni kreditlashga yo'naltirish majburiyatini olgan barcha banklarga Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi orqali berilayotgan kreditdan foydalanish imkoniyatini berish lozim.

- Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga uzoq muddatli subordinar kreditlarni berishni yo'lga qo'yish lozim.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarishni yo'lga qo'yish aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustaxkamlash bilan birga, ularning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi moliyaviy vositachilik rolini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi “Markaziy banki to'g'risida”gi qonun. T. “O'zbekiston”. 1995.
- 2.O'zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati haqida”gi qonuni. T. “O'zbekiston” 1996.
- 3.O'zbekiston Respublikasining “Bank siri to'g'risida”gi qonuni. T. “Adolat” 2003 y
- 4.O'zbekiston Respublikasi “Elektron to'lovlar to'g'risida”gi qonuni (16.12.2005 y., № QRQ-13);
- 5.O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami.T.O'zbekiston 2011 y. 448 b.
- 6.O'zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlari to'plami.T.O'zbekiston 2011 y. 456 b.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, 2000 yil 21 mart.
- 8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori 2005 yil 15 aprel.
- 9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni “O'zbekiston” 2005 y.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “To'g'ridan-to'g'ri hususiy horijiy investiciyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni “O'zbekiston” 2005 y.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori halqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi. PQ-1438-sonli qarori. “Halq so'zi” gazetasi. 2010 y.27 noyabr
- 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. 2007 yil 7 noyabr, PQ-726. “Halq so'zi” gazetasi. 08.11.2007 y.
- 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 apreldagi “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va uning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
- 14.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2005 yil 26 noyabrda 26/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan №619-sonli “Banklararo pul resurslari elektron bozorida operatsiyalar o'tkazish to'g'risida”gi Nizomi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomi (14.02.2006 y., № 1545);

15.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizomi (15.04.2002 y., № 1122);

16.Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" T.: «O'zbekiston» 2010 yil

17.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009. - 56 b.

18.Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. -T.: O'zbekiston, 2009. -24 b.

19.Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 2008. -368 b.

20.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. -176 b.

21.Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investiciya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. Tuzuvchi F.M.Mullajanov. -T.: O'zbekiston, 2011. -528 b.

22.Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent, O'zbekiston. 2012 y.36 b.

23.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, halqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi.-Toshkent.: O'zbekiston. 2011.

24.Karimov I.A. Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish.-Toshkent.: O'zbekiston. 2013.

Darslik va o'quv adabiyotlari:

25.Abdullaeva SH.Z. «Bank ishi». - T.: TMI, 2007 yil.

26.Abdullaeva SH.Z., Safarova Z.B. "Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish". T: "Iqtisod-Moliya".2007. -200 b.

27.Abdullaeva SH.Z., Omonov A.A. "Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish". O'quv qo'llanma./ -T.: "Iqtisod-Moliya" 2006.-120b.

28.Abdullaeva SH.Z., Qoraliev T.M., Ortiqov U.D. "Bank resurslari va ularni boshqarish". Monografiya./ -T.: "Iqtisod-Moliya" 2009.-104b.

29.Abdullaev YO.A., Qoraliev T.M., va boshqalar "Bank ishi". O'quv qo'llanma - B.M.: T.: "Iqtisod-Moliya", 2009. - 576 b.

30.Азрилияна А. Большой экономический словарь. М.: Институт новой экономики, 1999. - 852 с.

31.Абдуллаева Ш., Файзуллаева М., Галак О. Банковский менеджмент и маркетинг. Учебное пособие./ - Т.: "Iqtisod-Moliya", 2007. - 182 с.

32.Банковская дело. Под редакции О.И. Лаврушина М.Фин. и статистика. 1998. с.68.

33.Букато В.И., Львов Ю.И. «Банки и банковские операции в России», Москва, «Финансы и Статистика» нашриёти, 1996 йил 139-бет

34.Лаврушин О.И. Банковское дело: учебник. 2-е изд. Перераб. и доп. / О.И. Лаврушина. – М.: Финансы и статистика, 2008. - 594с.

35.Масленченков Ю.С. Менеджмент в коммерческом банке. - М.: Перспектива, 1996. - 190 с.

36.Омонов А.А. "Тижорат банкларининг молиявий ресурсларини бошқариш". Т.: "Фан ва технология" Монография, 2010 йил. 248 б.

37.Польфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дело. –М.: Инфра М. 1996. -С. 102-104.

38.Синки Дж. Управление коммерческими банками. Перевод с англ. – М.: Cattalaxy. 1994. –С. 22-23.

39.Шпрингиль В. Роль рынка ценах бумаг в жизни российских банков или несколько слов о банковской отчетности. //Рынок ценных бумаг. №19(271), 2004.С.44-45.

40.Claudia Dziobek, «Market-Based Policy Instruments for Systemic Bank Restructing», Working Paper, //International Monetary Fund// No.113, 1998, 190с.

41.Rode V. «Commercial Banks in a modern economy» //Switzerland Press// Switzerland. 1998.

Интернет сайтлари:

www.bankir.ru

www.state.uz

www.cer.uz.

www.nbu.com

www.tfi.uz

www.bma.uz

www.cbu.uz

www.finance.uz

www.review.uz

www.gov.uz